


N. XUSANOV

# KOMPONITSIYA

(DASTGOHLIK GRAFIKA)



0'2  
755.2  
X - 94

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

N. XUSANOV

## KOMPOZITSIYA (DASTGOHLIK GRAFIKA)

*Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma*

Ulfaka surʼati koʻu mene nusxasi / bu xizmatda tarqaldi va xelqa  
savdalarida eʼtiborli shaxslardan tayyorlangan / umum shaxsayotgan  
shaxs xereftiligi bilan bishbu sanʼat hujjatlarini aksallib turadi.  
Shaxs rasomlari rassomligi, targʼibat sohasi va hujjatlari / ulan oʼsish  
va chon yozishlarni maʼneviy daryo qurish uchun tarmoqchisiz oʻsish  
rasomchilikni ifzim chiqqur olishlari, kundalik huyotga sochi boʻyerga  
ras heng maʼnoli baho bera olishiari, Augsoniy (realistik) va  
kunstlerlikning tufʼie urmali hissallari / ishlari - dasxushli  
kompozitsiya fun kasb-hunar kollejlarda boshqalidir.

K. Behzod nomidagi  
Milliy Rassomlik  
va Dizayn Instituti

AKSIYOT RESURSLARI MARKAZI  
No 26482

«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK  
KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI  
TOSHKENT – 2007

RR

5P672

O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi ilmiy-metodik birlashmalari faoliyati muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

### Taqrizchilar:

Komoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti prof. akademik **C. Abdullayev**.  
Respublika rassomlik kolleji o‘qituvchisi **A. Mamajonov**.

### N. Xusanov

Kompozitsiya. Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma — T.: «SHARQ», 2007.— 112 b.

Kompozitsiya fanidan o‘quv qo‘llanma o‘rta maxsus kasb-hunar kollejlari ning grafika yo‘nalishi o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan.

Unda grafik rassom uchun eng asosiy bo‘lgan yo‘nalishlar bo‘yicha ma’lumotlar beriladi: ranglar haqida, rapport loyihasi, geometrik shakldan kompozitsiya tuzish, dekorativ natyurmortda kompozitsiya ishlash, dastgohli grafika, o‘simgilik va hayvonot dunyosini stilizatsiya qilish, kitob ishlash, plakat, pifogramma mavzularida grafika san‘atining o‘ziga xos xususiyatlari nozik qirralarini aniqlashda ilk saboqlarni beradi.

Ushbu qo‘llanmadan tasviriy san‘at, amaliy grafika, plakat, dastgohli grafika, kitob grafikasi bilan qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

**ISBN 978-9943-00-233-3**

© «SHARQ» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2007-y.

## KIRISH

Mazkur o'quv qo'llanma o'rta umumiy ta'lim maktablarining IX sinfini bitirib, kasb-hunar kollejlarida ilk bor tahsil olayotgan o'quvchilarga mo'ljallangan bo'lib, u umumta'lim maktablarida o'rgangan tasviriy san'at fanlaridan farq qiladi.

Kompozitsiya fani tasviriy san'atning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, unda bo'lajak grafik rassomlar amalga oshiradigan va hayotga tatbiq etadigan masalalar ijodiy topshiriqlar orqali namoyon etiladi.

Qo'llanmada bayon etilgan mavzularni chuqur tahlil qilish vazifalarini to'laqonli bajarish jarayonida bo'lajak grafik rassom — keng qamrovli, ijodiy bilim sohibi, kitob san'atini mukammal egallaydigan, turli nomdagi badiiy va ilmiy adabiyotlarga tasviriy jilo beruvchi, asar mazmuni va ahamiyati ni badiiy obrazlar orqali yoritib bera oladigan mahoratli mutaxassis qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Grafika san'ati ko'p ming nusxada, bosma usulda tarqaladi va xalqni ma'naviy hamda estetik jihatdan tarbiyalashda uning ahamiyati katta bo'lib, o'ta ta'sirchanligi bilan boshqa san'at turlaridan ajralib turadi.

Grafik rassomlar tashviqot, targ'ibot sohasi vakillaridir. Ular o'z ijodiy ishlari bilan yoshlarning ma'naviy dunyoqarashlarini tarbiyalashda o'tmish-dagi qadriyatlarimizni chuqur bilishlari, kundalik hayotda sodir bo'layotgan voqelikka keng ma'noli baho bera olishlari, haqqoniy (realistik) voqelikni o'z san'atida targ'ib qila olishlari lozim.

Kompozitsiya fani kasb-hunar kollejlarida birinchi kursdan oxirgi kursga qadar o'rganiladi, undagi beriladigan topshiriqlar uslubiy jihatdan bosqichma-bosqich murakkablashib boradi. Birinchi kursdan boshlab, o'quvchi o'ziga beriladigan vazifani o'ziga xos ravishda ijod qilishga o'rganishi, o'zidagi tasavvurni rivojlantirishga, fikrlash qobiliyatini asardagi ruhiyatini to'laqonli ochishga yo'naltirishga, hayotdagi voqelik bilan bog'lashga o'rganishi kerak. Yuqori kurslarda maxsus ustaxonalardagi ijodiy faoliyat orqali o'quvchilar ijodining nozik qirralari, ulardagi fikrlash qobiliyati asta-sekinlik bilan o'stirib boriladi.

O'quvchi kompozitsiya ishslash jarayonida, grafika ashyolarining barcha usullarini qo'llab ko'rishi kerak, chizma va rangtasvirlardagi fanlardan olgan bilimlari, kompozitsiya uchun moddiyat (natura)dan jamlangan chizma-tasvirlari va xomaki mashq (etud)larga juda katta ahamiyat berib, kompozitsiyadan berilgan topshiriqlarga jamlangan ashyolardan oqilona foydalana olishi lozim.

Kompozitsiya fani bo'yicha o'quvchi mustaqil asar ustida ishlashga o'rganishi lozim, shundagina asardagi fikr, birinchi taassurot aniq anglanishi, undagi mohiyat (sujet) va plastik ruhiyat jonli, hayotiy chiqishi, badiiy asardagi mavzu bosqichma-bosqich, asta-sekinlik bilan yoritilishi mumkin.

O'qish davomida o'quvchi grafika san'atining barcha turlari bilan tanishadi: kitobni bezash, husnixat, plakat, dastgohli grafika hamda amaliy grafika bilan ishlab, o'z malakasini oshiradi.

Yuqori kurslarda o'quvchilar kitobni bezashni va uni tasvirlashni o'rganadilar, plakat ishlab bo'yicha saboq oladilar va dastgohli grafika ustaxonalariga bo'linib, shu mutaxassislik bo'yicha grafik ashylarida o'z bilimlarini diplom ishi himoyasigacha davom ettiradilar.

Har bir mayzu bo'yicha topshiriqlar jamiyat hayotining turli sohalarini qamrab olib, ularda badiiy his qilish, shu yo'nalish bo'yicha ko'nikma hosil qilish va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Oddiy vazifalardan boshlab murakkab, izlanishga undovchi topshiriqlar kompozitsiyasi yechimi ifoda etilgan.

Topshiriqlar darsning turli bosqichlarida, yangi materialni tushuntirish, bilimlarni tekshirish, takrorlash jarayonida va uyda bajarilishi mumkin. Ularni qo'llash usuli va o'rnini o'qituvchi o'zining shaxsiy tajribasi, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari darajasiga qarab aniqlaydi.

Uy vazifasi va topshiriqlarni bajarishda, mazkur o'quv qo'llanmada berilgan tushuncha, badiiy obrazlarga ijodiy yondoshuvlar xalq og'zaki ijodiyoti va badiiy asarlarda bayon etilgan g'oyalarning tasvir orqali kompozitsion yechimini hal etish tavsiya etiladi.

Uy vazifasi va topshiriqlarni bajarishda, mazkur o'quv qo'llanmada berilgan tushuncha, badiiy obrazlarga ijodiy yondoshuvlar xalq og'zaki ijodiyoti va badiiy asarlarda bayon etilgan g'oyalarning tasvir orqali kompozitsion yechimini hal etish tavsiya etiladi.

Uy vazifasi va topshiriqlarni bajarishda, mazkur o'quv qo'llanmada berilgan tushuncha, badiiy obrazlarga ijodiy yondoshuvlar xalq og'zaki ijodiyoti va badiiy asarlarda bayon etilgan g'oyalarning tasvir orqali kompozitsion yechimini hal etish tavsiya etiladi.

Uy vazifasi va topshiriqlarni bajarishda, mazkur o'quv qo'llanmada berilgan tushuncha, badiiy obrazlarga ijodiy yondoshuvlar xalq og'zaki ijodiyoti va badiiy asarlarda bayon etilgan g'oyalarning tasvir orqali kompozitsion yechimini hal etish tavsiya etiladi.

Uy vazifasi va topshiriqlarni bajarishda, mazkur o'quv qo'llanmada berilgan tushuncha, badiiy obrazlarga ijodiy yondoshuvlar xalq og'zaki ijodiyoti va badiiy asarlarda bayon etilgan g'oyalarning tasvir orqali kompozitsion yechimini hal etish tavsiya etiladi.

# I BOB. KOMPOZITSIYANING UMUMIY KURSI

## 1-§. KOMPOZITSIYA UMUMIY KURSINING MAQSADI, VAZIFASI VA MOHIYATI

1-kursning o‘quv rejasidagi eng asosiy maqsad, uncha qiyin bo‘limgan plastik ko‘rinishli, tashqi muhitdan olingan va unga bog‘langan san’at asari bo‘lishi shart. Bu esa o‘quvchini tashqi muhitga jiddiy e’tibor berishga o‘rgatadi. O‘quvchi uning ichidan obyektning eng asosiysini ajratishga o‘rganishi, oddiy, realistik tasvirlar bilan bog‘lab kompozitsiya g‘oyasini amalga oshirishi kerak.

Har bir beriladigan topshiriq o‘quvchiga o‘qituvchining ko‘rsatmasi va suhbatidan boshlanishi kerak. Topshiriqning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda uning mohiyati yoritilishi lozim. Topshiriqnı bajarish jarayonida mutaxassis-o‘qituvchi maslahatlar (konsultatsiya), turli xil ko‘rsatmalar berib boradi va bir qancha sayohat (ekskursiya) safarlari uyuşhtiriladi, bu esa mavzuni to‘laqonli ochishga yordam beradi. O‘qituvchining eng muhim vazifalaridan yana biri o‘quvchini tashqi muhitni sinchkovlik bilan kuzatishga va obyektlarning hammasini bir joyga jamlab, eng ta’sirchan nuqtasini ajratib olib, uni o‘z joyida ishlata bilishga o‘rtatishi; manzalarli turli xil va umumiyo bo‘lishini, ularning bir-birlariga bog‘liqliklari va sharoitga qarab biri ikkinchisini to‘ldirishini uqtirishi kerak. Shu yerda o‘ziga xos shakl (forma) nusxasi ajralib chiqadi. Bularni umumiy, (kontrast) keskin farqli, yorug‘likdagi, soyadagi, tekislikdagi holati, yaxlitligi, monoxromligi, simmetriya va asimetriya, statika va harakat, muvozanatdagi hamda boshqa turlarini uchratishi mumkin.

O‘quvchi rassomchilikning badiiy usullaridan to‘g‘ri foydalana bilishi, o‘zining qobiliyatidan kelib chiqib, kompozitsiya fani uchun ishlanishlarning o‘ta tejamli eng to‘g‘ri yo‘lini topishi lozim.

Kompozitsiya fanidan beriladigan topshiriqlar o‘quvchining imkoniyatidan kelib chiqib murakkablashtirilishi, chuqurlashtirilishi mumkin. O‘qituvchining vazifasi kompozitsiyadagi eng muhim qismlar (detallar)ni hamda unga bog‘liq bo‘lgan ikkinchi darajadagi qismlarga ajratishni o‘rgatishdan iborat bo‘ladi.

Ayrim o‘quvchilar kompozitsiya ishi ustida (natura) moddiyatdan asar ishlashda (nabrosok, zarisovka, eskiz) chizgi, xomaki mashqlarni amalga oshirmsandan turib ish boshlashadi. Bunday ish usuliga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi, chunki jonli va doimiy kuzatishlarsiz jiddiy kompozitsiya yechimini topish mumkin emas.

I—II va III kurslarda o‘quvchilar kompozitsiya fanidan topshiriqlarni bajarishda grafika san’atining o‘ziga xos bo‘lgan barcha usullarida ishlashga o‘rganadilar.

Kitob bezash va uni tasvirlash, plakat va dastgohli grafiklar o'quv-chilarni turli yo'nalishda, turli xil mutaxassislik bo'yicha tayyorlashga yordam beradi.

I—II kurslarda o'quvchi kompozitsiya fanidagi mavjud bilim, uslublarning eng asosiylarini bosqichma-bosqich o'rganadi hamda kompozitsiya topshirig'ini bajarish jarayonida uning asosiy negizini egallab boradi.

Uchinchi kursdan boshlab, kompozitsiya kursi umumiy tanishuvdan iborat bo'lib, kitobni bezash va uni tasvirlash, plakat hamda dastgohli grafika ustaxonalariga o'tiladi. O'quvchi bu usullar bilan yaqindan tanishib chiqqan holda, mutaxassislikni erkin, o'z xohishi bo'yicha tanlaydi, shu kursdan boshlab ustaxonalarga o'tib ishlaydi va o'zining diplom himoya-sigacha shu mutaxassislik bo'yicha bilim saviyasini oshirib boradi.

Mutaxassislik ustaxonalarida o'quvchi kompozitsiya kursi bo'yicha grafika san'atining bitta bo'limini o'rganadi. Kompozitsiya darslari o'qituvchining doimiy nazorati ostida, o'quv ustaxonasining ish rejasida grafika kafedrasi ishlab chiqqan dastur bo'yicha olib borilishi lozim.

Yarim yillik uchun kompozitsiya fanidan topshiriq sifatida beriladigan barcha mavzular o'quvchiga har bir semestr boshida aniq qilib yetkazilishi lozim, chunki u topshiriqlarni bajarish uchun oldindan kerakli ashyolarni (materiallarni) moddiyatdan qidirib topishga ulgurishi shart.

Kurs kompozitsiyasi topshiriqlaridan tashqari, turli xildagi tanlov va musobaqalar tashkil qilish bilan eng yaxshi kompozitsiyani amaliyotga tavsiya etish mumkin. Bundan tashqari o'quvchilarning kompozitsiya asarlaridan doimiy ravishda ko'rgazmalar tashkil qilib, so'ngra uni muhokamadan o'tkazib turish lozim.

Kompozitsiya aniq ish rejası bo'yicha bajariladi, grafika kafedrasi tasdiqlagan va tavsiya etilgan oylik ish jadvalining haftalarga bo'lingan aniq vaqtiga ko'rsatilgan bo'lishi lozim, shuning asosida topshiriqlar nazorat qilinadi va baholab boriladi, kurs rahbarlari bilan suhbat olib borilib, kompozitsiya fanidan kamchilik va yutuqlar ko'rsatilib, yo'llanmalar berib boriladi.

## MAVZUGA DOIR TOPSHIRIQLAR

1. Murakkab bo'Imagan plastik yechimdag'i kompozitsiya ishlash.
2. Kompozitsiyani voqeiy hayotdan olish va unga bog'langan san'at asari yaratish.
3. Realistik tasvirlar bilan bog'lab, kompozitsiya ishlash.
4. Kompozitsiyaning g'oyasi oddiy, sodda va tushunarli bo'lishi.
5. Topshiriqning hajmi 30S40 sm dan oshmasligi kerak.
6. Ashyo erkin tanlanadi.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Kompozitsiya ishlashda o'quvchi eng avval nimalarga e'tibor berishi kerak?
2. O'quvchi topshiriqni bajarishda badiiy usuldan qanday foydalanadi?
3. O'quvchi kompozitsiyadagi eng muhim qismlarni qanday topadi?
4. Kompozitsiya ishlashda naturaning ahamiyati qanday?
5. Doimiy kuzatishlarsiz jiddiy kompozitsiya yaratish mumkinmi?

### **2-§. KOMPOZITSIYA HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHА**

Kompozitsiya (lotincha composition — tuzish, ijod qilish) badiiy asarning tuzilishi (strukturasi), qismlarning asar g'oyasi, xarakteri va vazifasiga muvofiq joylashtirilishi, o'zaro nisbati, realistik badiiy adabiyot, tasviriy san'at, musiqa, arxitekturada kompozitsiya hayotni haqqoniy aks ettirishga, hayotdagi haqiqatni ifodalashga xizmat qiladi. Kompozitsiyada ijodkorning dunyoqarashi, saviyasi, mahorati o'z ifodasini topadi. Kompozitsiya yaratish tizimi va usullari tarixiy sharoit, jamiyatning estetik qarashlari, davr talablari bilan bog'liq bo'lib, ularning o'zgarishi, **san'atning o'zi**, uning ijodiy metodlari rivoj topishi munosabati bilan **o'zgarib**, takomillashib, rivojlanib boradi. Realistik metodga tayangan holda yuksak mahorat bilan kompozitsiya yaratish har bir buyuk san'atkorning fazilati hisoblanadi.

Asar g'oyasi ijodkor tasvirlamoqchi bo'lgan tasvir, voqeа va shaxslarni bir nuqtaga yig'uvchi kuchdir. Qadimdan kompozitsiya asar g'oyasi bilan uzviy bog'liq holda tushunib keligan.

### **MAVZUGA DOIR TOPSHIRIQLAR**

1. A-3 formatda grafik kompozitsiya bajariladi.
2. Kompozitsiya uchun mavzu erkin tanlanadi.
3. Kompozitsiya ishlashda turli xomaki ashyolar to'planadi.
4. Bajarilgan kompozitsiya davr talabiga javob berishi lozim.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Kompozitsiya deb nimaga aytildi?
2. Realistik tasvir deganda nimani tushunasiz?
3. Kompozitsiyaning maqsadi, vazifikasi.
4. Kompozitsiyaning mohiyati.
5. Kitob bezash va uni tasvirlash.

### **3-§. KOMPOZITSIYADA RANGLAR JILOSI VA UNING RASSOM UCHUN AHAMIYATI**

Inson hayotida ranglarning ahamiyati juda katta. Biz ko'z o'ngimizda nimani ko'rsak uni ranglarda va rangning tovlanishi orqali ko'ramiz.

Jamiyatda inson uchun rangning roli muhim bo'lib, inson ruhiyatiga ta'sir etadi. «Umuman rang, — deb yozadi Gyote, — odamlarda katta quvonch uyg'otadi». Xalq dididagi go'zallik haqidagi tushuncha rang bilan bog'liq. Ular xalq amaliy san'atida o'z aksini topgan va xalq bayramlarida ham rang-barang ko'rinishlarni tomosha qilishimiz mumkin.

Rang o'zi nima? U qayerdan paydo bo'ladi, nimalardan tuzilgan? Inson ruhiyatiga ta'sir qiluvchi rangning xususiyati nimadan iborat? Tasviriy san'atda va tabiatda rangning estetik ta'siri, uni idrok qilish qonuniyatları mayjudmi, ular qanday? Rangning shakl chiziqlariga, yorug'-soyaga munosabati qanday? Rang majmuasi nima? Kolorit nima? Tasviriy san'at nazariyası oldida turgan shunga o'xshash rang bilan bog'liq savollar o'z yechimini topishi kerak.

Bu savollar ustida qadimdan, dunyoning ko'pgina olimlari izlanish olib borganlar.

Rang muammosi haqida hozirgi vaqtida ham ko'pgina fan sohalarida ilmiy ishlar olib borilmoqda. Fizika fani rangning tabiiy quvvati bilan shug'ullansa, fiziologiya — odam ko'zi yorug'likni sezib rangga aylantirishini o'rganadi, psixologiya — rangni idrok qilish muammosi hamda uning inson ruhiyatiga ta'sir qilib har xil his-tuyg'u hosil qilishi bilan, biologiya — tirik jonivorlar hayotida rangning roli va ahamiyati bilan qiziqadi.

Ranglar garmoniyasi, kolorit, kontrastlar — mavhumiy ranglarning go'zal birikmasi haqiqatan tabiatda mavjud va rassomlar uni idrok qiladi, umumlashtiradi, qayta-qayta kuzatishlar va mulohazalardan so'ng uni o'zgacha qabul qiladi. Shu ma'noda tabiat (yoki natura) rassomlar uchun asosiy rang his qilish manbayi hisoblanadi.

Rassom asar yaratishga ekan, ranglarni o'z didiga, uslubiga, maqsadiga bo'ysundirgunga qadar izlaydi. Uning asosida albatta, rang tushunchasi, rang nazariyası va qonuni yotadi.

Mukammal rang nazariyasiga va amaliyotiga ega bo'lgan rassom rang orqali badiiy obraz yaratishga erishadi. Kompozitsiyada **kam** rang katta o'rinni egallaydi. Rassom qanday asar yaratishidan qat'i nazar, bиринчи navbatda rangga e'tibor bersa, izlansa shundagina uning asari muvaffaqiyat keltiradi.

**Rang.** Rang moddalar chiqargan yoki qaytargan spektriga mos ravishda yorug'likni muayyan ko'rish tuyg'usini hosil qilish massasidir.

Uch xil ranglarning qo'shilishidan xohlagan ranglarni hosil qilish mumkin. Xalqaro kelishuvga binoan 3 xil asosiy ranglar tanlab olingan: qizil, sariq va havo rang. Rangli televideniya, rangli fotografiya hamda boshqa tasviriy vositalar asosida 3 xil ranglar aralashmasi yotadi. Ba'zi odamlar rang ajrata olmaslik kasaliga uchraydi. Bu kasallikda rangli va oq-qora tasvirlar, svetofor chiroqlari bir xil tusda ko'rindi.

Tasviriy san'atda rangtasvirning asosiy ifoda va tasvir vositasi rang hisoblanadi. Rassom rang orqali mavjud borliqning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Jahon san'ati taraqqiyotida borliq ranglarini aks ettirishning turli uslub va tizimlari shakllangan, biroq hammasining asosida ranglarni bir-biri bilan aralashtirib, yangi rang hosil qilish uslubi yotadi. Yetti xil kamalak (spektr) ranglarining bir-biriga aralashishi orqali 280 dan ortiq ranglar tuslanishini hosil qilish mumkin. Rang inson ruhiyatiga kuchli ta'sir etuvchi vosita bo'lib, u insonda quvonch va ma'yuslik, tetiklik yoki g'amginlik, xotirjamlik yoki bezovtalik tuyg'ularini uyg'otishi mumkin. Rassom uchun ranglarning ana shu kuchi muhim omil bo'lib, ular asarning g'oyaviy-plastik yechimida muhim rol o'ynaydi.

**Rasm.** Tabiatdagi bor ranglar axromatik va xromatik ranglarga bo'linadi. Axromatik ranglarga oqdan to'q qoragacha bo'lgan, xromatik ranglarga qizil, sariq, ko'k va hokazo ranglar kiradi. Xromatik ranglar o'z navbatida issiq (qizil, sariq, zarg'aldoq) va sovuq (ko'k, moviy, binafsha), shuningdek, har ikkalasiga kiruvchi (binafsha, yashil) ranglarga ajratiladi. Rangtasvirda issiq va sovuq ranglarning o'zaro uyg'unligi asarning rang tizimi — koloritini tashkil qiladi, shuningdek, asar kompozitsiyasini tashkil etuvchi unsur va vosita hisoblanadi. Issiq rang yaqinlik, sovuq rang uzoqlik tuyg'usini berishi asarda masofani ko'rsatishda (ayniqsa manzara janrida) qo'l keladi. Tasviriy san'at tarixida ranglardan foydalanish jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlanib borgan. Ibtidoiy jamoa rassom o'z asarlarini mavjud tabiiy (yog'och, ko'mir, olov kuyasi (kul)) ranglardan foydalanib ishlagan, jamiyat rivoji bilan rang pigment va bog'lovchilar bilan ortib borgan. Ranglar texnologiyasi (akovarel, tempera, akustika) ishlab chiqilgan. O'rta asrlar oxirida moybo'yoq texnologiyasi paydo bo'lgan, shu davrda ranglar tuslanishi ham ortib, avvalgi lokal, yassi ranglar o'rmini nur-soya yordamida o'zgaruvchi, tuslanuvchi ranglar tizimi egallagan. Buyumlarning to'laqonli hajmli ko'rinishini aks ettirish, fazoviy bo'shliqni ranglar orqali o'zlashtirish kuchayib borgan. XIX asrning 60—70 yillardan yorqin (spektr) ranglarga yaqin ranglarni yonma-yon qo'yish asosida kartinalar yaratila boshlandi. Bunday asarlarni ma'lum masofada kuzatish lozim. Ranglar majoziy, ramziy mavzuga ega bo'lib, ko'p hollarda asarning asosiy mazmuni va g'oyasini tashkil etadi. Ranglar o'lchami, shakl o'rni, sirli, falsafiy mazmunni yoritishga qaratilganligi va o'zaro uyg'unligi asarning rang tizimi koloritini tashkil qiladi.

## MAVZUGA DOIR TOPSHIRIQLAR

1. Topshiriq 40×60 sm li planshetga ishlanadi.
2. Qora fonga bo'yalgan planshetga Gyotening rang doirasini ishlanadi, bunda ranglarning asosiy bo'lgan qizil, sariq va havo ranglarni ma'lum foiz hisobida qo'shilib borishidan paydo bo'lgan yangi

ranglardan foydalanib kompozitsiya tuziladi. Ular teng bo'lakli andozalarda (to'rtburchak, uchburchak, oval, doira) va boshqa shakkarda bo'lishi mumkin.

3. Axromatik ranglar — oqdan to'q qora rangga o'zgarishi.
4. Xromatik, issiq va sovuq ranglardan o'ziga xos ravishda kompozitsiya ishlash topshiriq vazifasiga kiradi.
5. Ishlatiladigan ashyolar: goznak qog'oz, suv bo'yoq, guash yoki tempera.

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Ranglar necha turga bo'linadi?
2. Asosiy ranglar nechta?
3. Kompozitsiyada rang uyg'unligi nima?
4. Tasviriy san'atda ranglarning o'rni qanday?

## **II BOB. TASVIRIY SAN'ATDA RANGTASVIR KOMPOZITSIYASI**

### **1-\$. TASVIRIY SAN'ATDA KOMPOZITSIYA**

Tasviriy san'atda kompozitsiya — rasm yoki haykalda, shuningdek, naqshda qism, rang, soya va boshqalarning maqsadga muvofiqligi (san'atkorning g'oyasiga bo'sundirilishi). Kompozitsiya san'atkorning asar yaratish uchun hayotni o'rganishi, bilishi jarayonida shakllanadi. Makondagi narsalarning asarda joylashtirilishi, ularning o'zar munosabatini ifodalash, rang berish, asosiy va ikkinchi darajali narsani ko'rsatish, bo'yoqlardan foydalanish, yorug'lik va soya ifodasi, proporsiya, simmetriya kabilarga ahamiyat berilishi kompozitsiya yaratish jarayonidagi asosiy ishlardir. Tematik (mavzuviy) sujetda ayrim hollarda asarning muhit bilan munosabatiga kam e'tibor beriladi.

Kompozitsiya asarni shunchaki tuzish emas, balki uning maqsadi, nima asosida tuzilganligidir. Kompozitsiya asar g'oyasiga bog'liq. Tanlangan obraz yoki voqeа asarga kirish uchun muvofiq yoki yo'qligini faqat ijodkor aks ettirmoqchi bo'lgan tasvirga nisbatan aytish mumkin. Bu ham kompozitsyaning muhim jihat. Kompozitsiya shu jihat bilan asarda mazmuning qay darajada shaklga mos tushganini, shaklning qay darajada mazmun-dorligini ko'rsatuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

### **MAVZUGA DOIR TOPSHIRIQLAR**

1. Murakkab bo'Imagan grafik kompozitsiya ishlash.
2. Mavzu o'qituvchi tomonidan beriladi.
3. A-3 formatda ikkita grafik kompozitsiya ishlanadi.
4. Kompozitsiyaga kerakli ashyolar to'planadi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Tasviriy san'atda kompozitsiya nima?
2. Asarda g'oja o'rni qanday?
3. Kompozitsiyada mavzu ahamiyati.
4. Kompozitsiyada rang, soya, yorug'likning roli.

### 2-§. KOMPOZITSIYADA QO'LLANADIGAN ASOSIY TUSHUNCHALAR VA ULARNING MOHIYATI

Kompozitsiyada rapport, ritm, dinamika, statika, simmetriya, asimmetriya, forma, ton, kontrastlarning ahamiyati juda katta.

**Rapport tushunchasi.** Rapport — fransuzcha «rapoorter» so'zidan olingen bo'lib, «qaytarish» ma'nosini bildiradi. Asosan amaliy san'atda ko'p qo'llanadi: gilam, gazmol, kashta, kulolchilik, sopol idish, gulqog'oz va boshqalarda shakl, naqsh va ko'rinishlarning takrorlanuvchi qismi rapport deyiladi.

**Ritm tushunchasi.** Ritm — yunoncha «rheo» so'zidan olingen bo'lib, «oqaman» degan ma'noni anglatadi. Marom, davriylik — tabiat havosi va jarayonlarning muayyan vaqt davomida takrorlanib turishi. Ritm siklli va vaqtli bo'ladi. Hodisa va jarayonlarning tabiatda muayyan tartibda takrorlanib turishi sikllilik deyiladi. Masalan, quyosh faoliyati bilan bog'-liq hodisalar — quyosh dog'larining ko'payib-kamayishi. Vaqtli davriylik hodisa va jarayonlarning muayyan vaqt davomida takrorlanib turishi. Masalan, kun bilan tunning almashinishi bilan bog'liq jarayonlar, fasllarning almashinishi, iqlimiylar tebranishlar.

She'riyatdagi ritm tovush asosida paydo bo'ladi. Xususan, turkiy xalqlarning qadimgi she'rlaridagi misralarida alliteratsiya va so'z takrorlari uyuştirilgan. Bunda ichki qofiya ham qatnashgan. So'z qofiya misralar oxiriga ko'chib, efopiya (ohangdorlik) vazifasinigina emas, balki ritm vazifasini ham ado eta boshlagan.

Tasviriy san'atda ritm badiiy san'at asari tuzilishining o'ziga xos jihatini belgilaydi, uning g'oyaviy, badiiy, estetik mazmunini chuqurroq ochishga xizmat qiladi. Ritm qurilishi simmetriyaning turli unsurlariga, shuningdek, bir xil yoki bir-biriga o'xshash (yaqin) shakl va narsalarning (chiziq, muhrlangan harakat, nur-soya, bo'yoq dog'lari va h. k.) teng hajm va oralig'da tekis me'yorda qaytarilishi yoki oralab kelishiga asoslanadi. U yoki bu ritm qurilishi yordamida asarga turlicha emotsiyonallik baxsh etish mumkin.

Amalyi bezak san'ati hamda me'morchilikda asar kompozitsiyasini yaratish va obrazli shakllantirishda ritm muhim o'rinni tutadi. Me'morchilikda hajm, shakllarning (ustun, deraza, balkon va h. k.) bir maromoda qaytarilishi yoki oralab kelishi binoga o'zgacha mazmun kiritadi. Naqsh mujassamoti ham ritmg'a asoslangan holda yaratiladi. Bir yoki bir necha naqsh bo'laklarining takrorlanishi yoki oralab kelishi natijasida asarga tugallik yoki cheksizlik bag'ishlanadi.

**Statika tushunchasi.** Statika — yunoncha «statke» so‘zidan olingan bo‘lib, «jismlarning og‘irligi va muvozanati» haqidagi ta’limot.

Bu qonunni kashf etgan I. Nyuton bиринчи bo‘lib geometrik statika usulidan foydalanib, qattiq jismlarning muvozanat holatini o‘rgangan. Bu asosan ikki ko‘rinishda bo‘ladi:

a) jismga qo‘yiladigan kuchlar tizimini oddiy ko‘rinishga keltirish;

b) jism muvozanatda bo‘lishi unga qo‘yiladigan kuchlar tizimi qanday sharoitlarda qatnashishiga bog‘liq.

Statikaning asosiy tushunchalariga ko‘ra, erkin jism kuchi biron nuqtaga yoki o‘qqa nisbatan kuch momentiga (holat) bog‘liq.

Tasviriy san’atda statika — asardagi mavzusiga mos ravishda ishlataligan shaklning muvozanatda tik holatdagi ko‘rinishi tomoshabin nigohni bir zunga bo‘lsa-da to‘xtatadi, uni o‘ylashga, mulohaza qilishga undaydi.

**Dinamika.** Dinamika — yunoncha «dynamics» so‘zidan olingan bo‘lib, «kuch, jo‘shqinlik» ma’nosini anglatadi.

Hayotda bir jismning bir nuqtadan yurishi, siljishi, chopishi, yugurishi, uchishi va boshqa holatlarda ikkinchi nuqtaga qarab harakatlanuvchi kuch — dinamika deyiladi.

Tasviriy va amaliy san’atda kompozitsiyadagi mavzuning to‘laqonli ochilishida dinamikaning ahamiyati juda katta. U asardagi statik holatni jonlantirib, harakatga keltiradi.

Dinamikaning asardagi harakati shakllarda, chiziqlarda, ranglarda ifodalanadi. Ularning emotSIONalligi, asardagi dinamika (jo‘shqinlik) holatini kuchaytiradi.

**Simmetriya.** Tirik tabiatda simmetriyaning bir necha xili uchraydi. Tirik tabiatning tarixiy rivojlanishi davomida simmetriya shakli ham o‘zgarib borgan. Masalan, tiriklik rivojlanishining ilk davrlarida nuqtali simmetriyalari, to‘g‘ri ko‘p burchakli va sharsimon simmetriyalari organizmlar keng tarqalgan.

Evolutsiyaning yuqori bosqichlarida o‘simlik va hayvonlar uchun asosan, aksial simmetriya va aktinomorf simmetriya xos. Aksial simmetriyalari organizmlar tartibli simmetriya o‘qiga ega. Aktinomorf simmetriyalari bioobyektlar esa tartibida simmetriya o‘qi va bu o‘qni kesib o‘tgan tekislikka ega. Tirik tabiatda simmetriya va ikki tomonlama, ya’ni bilateral simmetriya keng tarqalgan. Asimmetriya ko‘pchilik o‘simlik turlarining barglari, ikki tomonlama simmetriya, odatda, umurtqali hayvonlar va ko‘pchilik umurtqasizlar uchun xos. Simmetriyaning ularning tuzilishi, kelib chiqishi, rivojlanishi, xossalari va funksiyasini yaxshiroq anglab olishga yordam beradi.

Me’morchilik va tasviriy san’atda simmetriya kompozitsiyasi juda qadimdan qo‘llab kelinadi. Yunon ehromlarining frontallaridagi naqshlarda simmetrik relyef kompozitsiyalari uchraydi.

Keyinchalik o'rta asrlarda ehromlarning dekorativ naqshlarida, xalq ijodiyoti, kashtachiligidan simmetriyadan keng foydalana boshlandi. Simmetriya oxirgi vaqtarda mahobatli rangtasvir devorlarida, grafikada, dekorativ ijodda, ornamentli (naqshli) san'atda ishlatila boshlandi.

Simmetriya dastgohli rangtasvir kompozitsiyasiga ham kirib kela boshladi. Simmetriya realistik rangtasvirda ayrim hollarda namoyon bo'lsa-da, keyin mahobatli rangtasvir va ayniqsa tekislik yuzasida undan keng foydalana boshlandi.

Namunali misol sifatida simmetriya kompozitsiyalari Uyg'onish davridagi italiyalik rassomlar asarlarida ko'plab uchraydi. Leonardo da Vinchingining «Maxfiy kecha» asaridagi kompozitsiya bunga misol bo'la oladi.

**Asimmetriya.** Asimmetriya — simmetriyaning bo'limganligi yoki buzilishidir. Asimmetriya — simmetriya tuzilishining aksidir. Asarda kompozitsiya asimmetriya asosiga qurilgan bo'lsa, unda asosiy qoidaga ko'ra simmetriya emas, agar aksincha, kompozitsiya simmetriya qoidalariغا qanchalik rioya qilsa, asimmetriya bo'lmaydi. Bu esa kompozitsiya qonunlari bo'yicha simmetriya va asimmetriyani bir-biri bilan kelishgan holda bo'lishini isbotlaydi.

Asimmetriya kompozitsiyaning markaziy qismi muvozanatining ixtiyoriy ravishda bo'lishi yoki ba'zida umuman ishtirok etmasligi, ayrim hollarda asarda insonlar bo'lmagligi uchun uning boshqa bir qismi band bo'lishi kerak.

Agar asarning asosiy mazmuni yaqqol ko'ringan farqlar, ya'ni kontrast orqali ochilsa, bu holda unda yaqqol ko'ringan ijtimoiy va psixologik farqlarning asosiy qahramonlari yoki bir guruhni tashkil qilgan (figura) qomatlarning xarakteri, bir-biriga nisbatan joylashganligi, ular orasidagi masofa, har birini tashqi ko'rinishi, simmetriyani hosil qilish prinsiplari kompozitsiyaning bir bo'lagi bo'ladi.

Ikki qarama-qarshi bo'lgan kompozitsiya turini tabiiy qonunlar asosida hosil bo'lgan ranglar birikmasi ta'siri orgali ko'rish mumkin.

**Format.** Rassomlar ilgarigi davrlarda format hajmiga katta e'tibor berishgan. Asarning joylashishiga (qurilishiga), tasvirning, bo'rttirib ishlangan holatiga va uni yaxlit ko'rinishiga formatning ta'siri kattadir.

Format (hajm) kvadrat, to'g'ri to'rburchak, oltin kesishuvli va cho'ziq to'g'ri to'rburchak ko'rinishida, ko'ndalang yoki tik (gorizontal yoki vertikal) holatdagi ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Formatni tanlash mavzuga, tasvirlanuvchi joyga (obyekt), tasviriy san'at turi va janriga bog'liq.

Xomaki qoralamalar bilan ishslash jarayonida o'quvchi moddiyat (natura)dagи shakllarning bir-biridan farqini ajratib olishi, tez bajariladigan qoralamalarida ko'ndalang yoki tik (vertikal yoki gorizontal) holatdagi shakllarni ajratib olishi kerak va shu orgali o'zining bo'lajak kompozitsiya asaridagi hajm (format)ni to'g'ri topa oladi.

**Tus berish (ton).** Ton — «tonos» so‘zidan olingen bo‘lib, keskinlik, kuchlanish, to‘qarish yoki ocharish ma’nosini anglatadi.

Bu atama asosan rassomlar va san’atshunoslarning ijodiy amaliyotida ko‘pincha ikki ma’noda ishlatiladi: naturadagi tus (ton) — moddiyatdagi yorug‘lik miqdori va rangtasvir asaridagi holat. Tusning moddiyatda va rangtasvirda kuchayishi, yorug‘likning qaysi kuch bilan ta’sir etishi va optika orqali qanchalik aralashishiga bog‘liq bo‘ladi.

Ayrim izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, tabiatdagi va rangtasvirdagi tus o‘zaro optik ranglar bilan birlashadi. Masalan, manzara ishlaganda yorug‘lik — barg rang, jigarrang — qizil, kumushdek oppoqlik — havo rang, oltingugurt rangi — limon rangi bilan ishlatiladi. Agar tomoshabin asarga uzoq masofadan qarasa, ranglarning bir-biri bilan uyg‘unlashganini, optik jihatdan o‘ziga xos xarakterli yangicha bir ranglar jilosi paydo bo‘lganini ko‘radi.

Tabiatda va rangtasvirda ranglarning o‘ziga xos ahamiyati bor. Ranglarning xarakteri spektr yordamida namoyon bo‘ladi. Har qanday buyum qandaydir o‘ziga xos xarakterga ega. Tus (ton)ning yorug‘lik darajasini his etish, ajaratish, aniqlash va farqlash san’atkorning mahoratiga bog‘liq.

**Kontrastlilik.** Kontrastlilik — fransuzcha «*contraste*» so‘zidan olingen bo‘lib, «keskin ifodalangan qarama-qarshi» ma’nosini bildiradi.

Tasvirdagi eng yorug‘ (och) va eng qora (to‘q) joylarning yorug‘lik qismlariga nisbati bo‘yicha oq-qora rangtasvirdagi kontrast — eng katta va eng kichik obyekt zichliklariga tushayotgan yorug‘lik nurlarining darajasiga bog‘liq. Masalan, qora rang oq rang oldida yana ham qoraroq ko‘rinadi. Issiq narsani ketidan sovuq berilishi va hokazolar kontrast, ya’ni qarama-qarshi hissiy timsollar tasvir obrazlari hamda aqliy-mavhumot tarzida namoyon bo‘ladi.

Odatda ko‘rishda, eshitishda, tasviriy ifodalarida kontrast uchrab tursa, ikkinchi bir tomondan yorug‘lik, rang, hajm ko‘lami jihatidan tasviriy kontrast fazoviy vogelikni aks ettiradi.

Kompozitsiya asarini ishslash jarayonida, kontrast tasviriy san’ati, kompozitsiya qonunlari asosida tasvirlashda shakl sifatida kompozitsiyaning konstruksiysi birinchi planga chiqadi, chunki u tasvirning eng asosiy ifoda vositasidir.

## MAVZUGA DOIR TOPSHIRIQLAR

1. Mavzuga asosan turli kichik hajmdagi kompozitsiyalar bajariladi.
2. Rapportga oid kompozitsiya.
3. Ritmga oid kompozitsiya.
4. Statikaga oid kompozitsiya.
5. Dinamikaga oid kompozitsiya.
6. Simmetriyaga oid kompozitsiya.
7. Asimmetriyaga oid kompozitsiya.
8. Ashyo erkin tanlanadi.
9. Topshiriq hajmi A-5 formatda.

1. Rapport loyihasi nima?
2. Kompozitsiyada ritm nimani anglatadi?
3. Kompozitsiyada statika va dinamika o'rni qanday?
4. Simmetriya va asimmetriya nima?
5. Kompozitsiyada muvozanat va oltin kesishuv nimani anglatadi?
6. Formatning kompozitsiyadagi o'rni?
7. Ton nima?
8. Kompozitsiyada kontrastning ahamiyati.

### III BOB. NATYURMORT ASOSIDA KOMPOZITSIYA

#### 1-\$. NATYURMORTLARDAN RASMLAR ISHLASH

Natyurmort nima? Tabiatda barcha jonsiz narsalar natyurmort bo'lishi mumkin. Natyurmortni turli mavzularga bo'lish mumkin: geometrik shakllardagi buyumlar, uy-ro'zg'or buyumlari, parranda va hayvonlarning tulumlari, turli taqinchoq yoki zargarlik buyumlari, gullar, meva va sabzavotlar, turli kanstovar buyumlari, oziq-ovqat mahsulotlari, texnikaga oid buyumlar, o'simlik dunyosi va boshqa ko'plab misollar keltirish mumkin. Natyurmort ishlash jarayonida, o'quvchi asosan uncha qiyin bo'Imagan uch yoki to'rtta buyumlardan iborat kompozitsion natyurmort ishlaydi; turli ashylarda izlanib ko'rish, imkoniyatlaridan to'liq foydalanib, badiiy jihatdan kompozitsion topilgan natyurmort ishlanadi. Tabiatda jism va buyumlarning umumiyo ko'rinishi, ularning bir-biriga bo'lgan nisbati, ranglardagi mutanosiblik, issiq va sovuq ranglarning o'zaro bog'liqligi, birinchi ikkinchisidan farqlanishi, ular orasidagi o'xshashlik, katta rangning kichkinasiga ta'siri, yorqin yoki bo'g'iq ranglarning munosabati, buyumlarga tushayotgan yorug'lik va buyumlardan tushayotgan soya, natyurmortning eng yorug' joyi, rangda birinchi, ikkinchi va uchinchi planlarni aniqlash, natyurmortdagi buyumlarning aylana shaklini (hajm) katta tekisliklarga ajratish, buyumlarni yorug'lik, nimsoya va soyalarga ajratib olish — beriladigan topshiriqning vazifasiga kiradi.

#### MAVZUGA DOIR TOPSHIRIQLAR

1. Moddiyatdan natyurmort ishlash.
2. Natyurmortni kompozitsion joylashtirish.
3. Natyurmortning asosiy xarakterini topish.
4. Grafik ashylarda dekorativ kompozitsiya ishlash.
5. Uncha qiyin bo'Imagan 3—4 buyumlardan iborat bo'lgan natyurmort ishlash.
6. Natyurmortni katta tekislikka kompozitsion joylashtirish.
7. Topshiriqni ishlashda katta va kichik shakllarni to'g'ri topish.
8. Issiq va sovuq ranglarning o'zaro bog'liqligiga e'tibor berish.
9. Kompozitsion natyurmortni turli grafik ashylardan ishslash.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Natyurmort nima?
2. Natyurmort qanday turlarga bo'linadi?
3. Jism va buyumlarning mutanosibligi qanday o'rganiladi?
4. Natyurmortda ranglarning ahamiyati qanday?
5. Natyurmortda shakllarning nisbati qanday aniqlanadi?

### **2-§. GEOMETRIK SHAKLLARDAN NATYURMORT ISHLASH**

Tabiatda barcha narsalar geometrik shakllarga asoslangan. O'qituvchi o'quvchilarga bajarishi lozim bo'ladigan topshiriqning kompozitsiya fanidagi ahamiyati va maqsadlari haqida tushuntiradi. O'quvchi topshiriqni ishlash jarayonida moddiyat (natura) dan ko'plab natyurmortlarning xomakilarini ishlaydi. O'quvchiga qo'yiladigan vazifa va shartlar: buyum va jismlarning umumiyligi ko'rinishi, ularning bir-biriga nisbati, shakllari orasidagi munosabatlar, buyum va jismlarning kompozitsion joylashuvi, kompozitsianing vertikal, gorizontal yoki qiyin rakursda topilganligi, buyumlarning o'ziga xos xarakteri, ularning qiziqarli tarzda joylashganligi, katta shaklning kichkina shakl bilan uzviy bog'liqligi, gorizontal tekislikda buyumlarning, kompozitsion mosligi, natyurmortning xarakteri, o'ziga xoslisini to'g'ri topib, beriladigan topshiriqni to'g'ri bajarishga asos bo'la oladi.

Topshiriq: uch-to'rt buyumlardan iborat bo'lgan kompozitsiya. Geometrik shakldagi natyurmortni grafik ashyolarning birida bajarish tavsiya etiladi: qalam, rangli qalam, guash, tempera, tush, pero, suv bo'yoq, sangina, sous, retush, pista ko'mir va boshqalar bo'lishi mumkin.

Topshiriqning hajmi  $40 \times 60$  sm dan oshmasligi kerak.

### **MAVZUGA DOIR TOPSHIRIQLAR**

1. Natyurmortdan kompozitsiya ishlash.
2. Topshiriqda buyumlar 3—4 tadan ko'p bo'lmasisligi kerak.
3. Topilgan kompozitsion grafik ashyoda bajariladi.
4. Topshiriq hajmi  $40 \times 60$  sm dan oshmasligi kerak.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Geometrik shakllarni joylashtirishda nimalar inobatga olinadi?
2. Shakllar qanday kompozitsiya asosiga quriladi?
3. Katta shakl bilan kichik shakl muvozanati qanday belgilanadi?
4. Shakllarning rangdagi munosabati qanday bo'lishi kerak?
5. Topshiriqdagi geometrik shakllar vertikal yoki gorizontal — qanday holda joylashishi kerak?

### **3-§. DEKORATIV NATYURMORTDAN KOMPOZITSIYA TUZISH**

O'quvchilarning asosiy o'rganadigan bilimlari haqqoniy (realistik) voqelikdagi tasvirni grafik ashyolarda ko'rsata bilishdan iborat. Grafikaning texnik san'atini o'rganish jarayoni asosan amaliy mashg'ulotlardan tashkil topadi. O'quvchilar ashyolarda ishlash usullarini o'zlashtirib, barcha texnologik jarayonlar bo'yicha savollarga javobni o'z o'qituvchisidan olib, ish jarayonida uning ko'rsatmasi va kuzatuvi ostida bo'lishlari lozim.

O'quvchilarga beriladigan topshiriqlar turli xillardagi texnologiyalarni sinashdan boshlanadi. Avvalo grafik ashyolardagi eng oddiy usullarda ishslashni o'zlashtiradilar, bir qancha sinovlardan keyin, o'quvchi beriladigan topshiriqlarni bajarishda moddiyat (natura)ga asoslanib, oldin oddiy qog'ozga chizmatasvir ishlaydi, o'qituvchi chizmalar ichidan tanlab bergenidan so'ng, asta-sekin grafik ashyosida bajaradi.

Dekorativ natyurmortni suv bo'yoq, guash, rangli qalam, pastel, tempera, moy bo'yoq ashyolarida bajarish mumkin. Dekorativ natyurmortni asosan uning kompozitsion joylashishiga, buyumlarning bir-biriga nisbati, uning orqa plandagi mato bilan bog'langanligi, buyumlarning bir-biriga nisbati, ularning xarakteri, shakli, o'ziga xosligi, real tasvirlarda aks etganligi va professional darajada bajarilishi, o'quvchining topshiriq vazifasiga kiradi.

#### **MAVZUGA DOIR TOPSHIRIQLAR**

1. Kompozitsion dekorativ natyurmort ishslash.
2. Topshiriq guash ashyosida bajariladi.
3. Topshiriqda buyum 3—4 tadan oshib ketmasligi kerak.
4. Topshiriqning hajmi  $40 \times 60$  sm dan oshib ketmasligi kerak.

#### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Natyurmortning kompozitsion joylashivi qay tarzda bo'lishi kerak?
2. Dekorativ natyurmortda shakl birlamchimi yoki rang?
3. Dekorativ natyurmortda ranglar chegaralanadimi?
4. Kompozitsiyada muvozanat nima?
5. Dekorativ natyurmortdan realistik natyurmortning farqi nima?

### **IV BOB. MANZARA VA MANZILNI AKS ETTIRUVCHI KOMPOZITSIYA**

#### **1-§. SHAHAR MAVZUSIDA KOMPOZITSIYA YARATISH**

O'quvchi «shahar» mavzusi ustida ishlar ekan, eng avvalo o'ziga fushunarli bo'lgan, muntazam kuzatishlariga suyanib ishlashi kerak. Masalan: «shaharda bahor» yoki shahardagi ishlab chiqarish korxonalariga bag'ishlangan yoki bosqqa mavzuda ham bo'lishi mumkin.

N. Xusanov

51672

17

K. Rebezod nomidagi  
Milliy Rassomlik  
va Dizayn Instituti

AXBOROT RESURS  
MARKAZI

No 26482

O'quvchi O'zbekistonda bo'layotgan hodisa, voqea, o'zgarishlarni kuzatib, ulardan xomaki, chizgi, etud, rasmlar, fotomateriallar yig'adi. Masalan: industrial ishlab chiqarishlardagi holat, shahardagi tabiatning o'zgarishi, qurilish obyekti, qizg'in hayat tarzi, bozorlar, magazin, transport bekti yoki shahardagi turli kasbda ishlayotgan insonlarga bag'ishlangan bo'lishi mumkin.

O'quvchi o'zining dastgohli grafika kompozitsiyasiga xomakilar ishlash jarayonida, kompozitsiyada ishtirok etadigan asosiy qahramonlariga, ularning xarakteriga, voqeanning hayotiyligiga, o'ziga xosligiga, original holatiga, kompozitsion jihatdan yaxlit-mukammalligiga alohida e'tibor berishi kerak.

O'quvchi kompozitsiya asari uchun asosiy qahramonlariga chizmatasvir ishlab, bu chizgilarning xarakteri, harakat va imo-ishora ifodalarining alohida bo'rttirilgan bo'lishiga e'tibor berishi lozim.

Realistik mакtabga asoslangan akademik usuldaғi kompozitsiya topshirig'ini bajarish uchun: qog'ozlar, qalamlar, tush, pero, guash, tempera, pastel, sangina, sous, suv bo'yoqlaridan foydalanish mumkin.

Bundan tashqari, rahbar o'qituvchining nazorati ostida o'quvchi o'ziga xos shaklda, keskin farqli usulda topshiriqlar bajarishi mumkin. Masalan: yorug'lik va soya, (simmetriya va asimetriya) bir-biriga o'xshash va mutlaqo qarama-qarshi, muvozanatdagi va harakatdagi, tekislikda yoki bo'rttirilgan va boshqalar. Bundan tashqari insonlarning har xil holatdagi jo'shqin bo'rttirib ko'rsatilgan mashqlari, qo'shimcha imo-ishora, ifodalar, insonlarning fikrlayotgan, ajablanayotgan holati, qo'rquvdagi holatlari, xursandchilik, qayg'uli, o'ychan holatlar va boshqa vaziyatlar bo'lishi mumkin.

Har bir beriladigan topshiriqlar bajarishdan oldin o'quvchi o'qituvchining ko'rsatmasini oladi. Kompozitsiya ishlashda o'qituvchining e'tiborini badiiy ijodning usullaridan to'g'ri foydalanishga, o'z qobiliyatidan kelib chiqib, kompozitsiya bo'yicha to'g'ri yo'nalishni topishga qaratish kerak.

Bundan tashqari o'quvchi o'ziga xos shaklda, keskin farqlanuvchi bo'rtma topshiriqlar bajarishi mumkin. Yorug'lik va soya, simmetriya va asimetriya, bir-biriga o'xshash va mutlaqo qarama-qarshi, tekislikda muvozanatda va harakatdagi, bo'rttirilgan va boshqa ashyolar tasvirlanadi. Bundan tashqari insonga xos bo'lgan imo-ishora, ifodalar fikrlash, ajablanish, qo'rquv holatlari kabilar ifodalanadi.

## MAVZUGA DOIR TOPSHIRIQLAR

1. Moddiyatdan shahar manzarasini ishlash.
2. Dastgohli grafika kompozitsiyasiga xomakilar ishlash.
3. To'plangan ashyolardan dastgohli grafika kompozitsiyasi ishlash.
4. Kompozitsiyani grafik ashyoda bajarish.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. «Shahar» mavzusining qanday turi yoki holatlari bo'lishi mumkin?
2. Xomakilar ishlashda asosan nimalarga e'tibor berish kerak?
3. O'quvchi kompozitsiya asari uchun mavzuni qayerdan oladi?
4. Badiiy ijod usullaridan to'g'ri foydalanishda nimalarga e'tiborni qaratish lozim?

### **2-§. SHAHAR MAVZUSIGA DASTGOHLI GRAFIKA ISHLASH**

Dastgohli grafika ishlashda kompozitsiya uchun berilgan topshiriqdagi mavzuning g'oyasini o'quvchi aniq asar mazmuni orqali ocha olishi kerak. Hayotdagি o'ziga xos bo'lgan eng go'zal ko'rinishlarni ko'rsata olishi, insonlarga o'z kompozitsion asari bilan ma'naviy jihatdan ta'sir o'tkaza bilishi, o'quvchining o'ylagan fikrlari, g'oyalari, rejalarini, bilimlarini, to'plagan ashyolarini, xomakilarini asardagi qahramonlarning qiyofasida davr nafasi sezilib turishiga, asardagi asosiy ma'noni chuqurroq ifodalashga qaratmog'i kerak.

O'quvchi kompozitsiya asarini ishlashda o'zida bor bo'lgan iqtidor, tajriba, mahoratni ishga solib, grafik ashyolarning birida bajarishi shart. Yana chizmatasvir, rangtasvir va moddiyatdan mashqlar ishlashi, adabiyot va hujjatlarga asoslanib yoki boshqa manbalarga qarab ishlashi kerak. O'quvchi ishlashdan oldin quyidagilarga e'tiborini qaratishi kerakki, xomakilarni izlash jarayonida ashyolarning o'ziga xosligini hisobga olib, ishlash kerak.

O'quvchining kompozitsiya asarining g'oyasi, uning mazmuni — unda ishtirot etayotgan obrazlar ruhiyati, fe'l-atvoriga mos kelishi lozim. U asar g'oyasi ma'nosini o'z joyiga qo'yib ishlata bilishi, kompozitsiyadagi guruhlarning bir-biriga bog'liqligi, asardagi fe'l-atvorlarni bo'rttirilgan holatda topilishi, undagi imo-ishora va ifoda tasvirdagi vogelikka mos kelib, asarning ma'nosini to'liq ochishga yordam berishi kerak, shundagina o'quvchiga berilgan topshiriq to'laqonli bajariladi.

## **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Tabiatda qanday holatlar uchraydi?
2. Shahar manzarasini ishlashda nimalarga e'tibor berish kerak?
3. Shahar manzarasida perspektivaning ahamiyati.
4. Shahar mavzusida holat birlamchimi yoki sujetmi?

### **V BOB. KITOB BEZAGI SAN'ATI**

#### **1-§. KITOB**

Kitob — axborot, g'oya, obraz va bilimlarni saqlash hamda tarqatish vositasidir. Xalqaro statistikada YuNESKO tavsiyasiga ko'ra, hajmi 3 bosma taboqdan ortiq, ya'ni 48 sahifadan kam bo'Imagan bosma asar shartli

ravishda kitob deb qabul qilingan. Kitob haqida buyuk mutafakkirlar, klassik adiblar shunday yozishadi: «Olamda kitobdan aziz do'st yo'qdur» (Alisher Navoiy), «Kitoblar inson tafakkuri javohirlarini yig'ib, avlodga meros qoldiradi» (Oybek).

Kitobning paydo bo'lishi tarixi yozuvning yaratilishi va shakllanishi jarayoni bilan uzviy bog'liq. Yozuvning tuzilishi xususiyatlari (belgilar tizimi, ularning joylashish tartibi), yozuv materiali va qurolining o'ziga xos tomoni va boshqa, ma'lum darajada kitob tuzilishini ham belgilab beradi.

Qadimgi Misr, Rim, Yunoniston va Markaziy Osiyoda kishilar tosh, palma daraxti barglari, sopol va boshqa materiallarga yozib fikr bayon etganlar. Har bir kitob o'nlab shunday materiallardan tayyorlangan plitalardan iborat bo'lib, og'irligi bir necha kg bo'lган. Yozuv materiali sifatida papirus o'simligi ishlatilishi (mil. avv. 4—3 ming yilliklarda) bilan o'rama kitoblar paydo bo'ldi. Bunday kitoblarning uzunligi o'rtacha 10 metr atrofida bo'lib, ingichka yumshoq tayoqlarga o'ralgan va maxsus charm yoki yog'och g'iloflarda saqlangan. Sharq mamlakatlarida, qadimgi Rim va Yunonistonda ko'pgina nodir asarlar papirusga bitilgan.

Mil. av. 2-asrga kelib kitob materiali sifatida pergament (teri)dan foydalanish keng rasm bo'ldi. Dastlab bunday kitob o'rama holda saqlangan. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, Markaziy Osiyoda tarqalgan zardushtiylik dinining muqaddas kitoblaridan Avestoning qadimgi nusxasi ham pergamentga yozilgan. Uning keyin ko'chirilgan nusxalaridan biri O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyida saqlanmoqda. Arablarning O'rta Osiyodagi istilosiga qadar (8—10 asr) ko'p nodir kitoblar saqlangan kutubxonalar bo'lган. Lekin ularni ko'pi yondirib yuborilgan. 1-asrdan boshlab xuddi hozirgi kitoblarning varaqlari singari bir-biriga biriktirilgan muqovali kitoblar paydo bo'ldi. Ular dastlab papirus, so'ng pergamentga yozilgan. Bunday kitoblar og'ir va beso'naqay edi. Pergamentga yozilgan noyob kitoblardan biri — Usmoniy qur'oni (681-yilda yozilgan) O'zbekiston musulmonlari diniy idorasida saqlanmoqda.

Qog'ozning kashf qilinishi kitob tarixida yangi sahifa ochdi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda 650-yillardayoq Samarqandda qog'ozli kitoblar bo'lган. 13-asrdan Yevropada qog'oz asosiy yozuv materiali bo'lib qoldi. Qog'oz kitobning ko'payishiga va tarqalishiga yangi imkoniyatlar ochdi. Kitob bezashga alohida ahamiyat berildi. Uning sahifalariga turli miniatyurlar, hoshiyalariga bezaklar ishlana boshlandi. Asta-sekin xattotlik (kalligrafiya), muqovasozlik kabi kasblar ajralib chiqdi. Ayniqsa Markaziy Osiyoda o'rta asrlarda xattotlik san'ati keng rivojlandi. Mashhur xattotlarning ko'p avlodlari kitob tayyorlash usulini — materiallar, siyoh, xat ko'chirish texnikasini takomillashtirib bordilar. Xususan, bu sohada Kamoliddin Behzod ayniqsa shuhrat qozondi.

Markaziy Osiyoning buyuk mutafakkirlari — Abu Rayhon Beruniy, Farobiy, Mirzo Ulug‘bek, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg‘ariy, Al-Buxoriy, Al-Farg‘oniy, Alisher Navoiy, Bobur va boshqalarning asarlari xattotlar tomonidan ko‘chirib, avlodlardan avlodlarga yetkazildi. Xattotlik Markaziy Osiyoda uzoq saqlandi, hatto kitob bezash kashf qilingandan keyin ham dastlabki vaqtarda kitoblar qo‘lyozma yo‘li bilan ko‘paytirilar edi. Qo‘lyozma kitoblar ko‘p vaqt va katta mehnat talab qilib, qimmatga tushardi. Ulardan keng omma bahramand bo‘lolmadi.

Kitob nusxalarini ommaviy ko‘paytirish yo‘lidagi izlanishlar natijasida ksilografiya paydo bo‘ldi. XV asrning 40-yillarida Germaniyada Iogann Guttenberg (1500—1568) tomonidan kitob bosish ixtiro qilinishi bilan kitob taraqqiyotida yangi davr ochildi. Kitob bosish texnikasi asta-sekin takomillashib, boshqa mamlakatlarga ham tarqala boshladi. 1465-yil Italiyada, 1468-yil Chexoslovakiya va Shveysariyada, 1470-yil Fransiyada, 1477-yil Angliyada kitob bosish joriy etildi. 1564-yilda Rossiyada birinchi bosma kitob bosmadan chiqdi.

Turkistonda bosma usulda kitob chiqarish 1868-yilda Toshkentda ochilgan Turkiston harbiy okrugi shtabining bosmaxonasida yo‘lga qo‘yildi. Shu bosmaxonada nashr etilgan rus olimi va sayyohi N. A. Sversovning «Chu va Norin tizmalari etagidagi tog‘li o‘lka to‘g‘risidagi lavhalar» kitobi rus tilida bosildi. Shohimardon Ibrohimovning 1871-yil Xivada bosilgan «Kalender» kitobi ham bosma usulda chop etildi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Kitobning vazifasi nima?
2. Necha taboq matn kitob deyiladi?
3. Kitob dastlab qanday bo‘lgan?
4. Kitob qachondan boshlab bosib chiqarilgan?

## 2-§. KITOBLARNING TUZILISHI VA TURLARI

Hozirgi kitoblar o‘quvchilar talabi va estetik didiga ko‘ra muayyan shaklga ega. Kitob sahifalarga ajratilib, daftar shaklida o‘rtasidan tikiladi va muqovalanadi. Muqovaning kitob sahifalari bilan biriktirilgan qismi forzas deyiladi. Ayrim hollarda muqovani saqlash va bezak sifatida super jild kiygiladi. Kitobning bosh qismida titul varag‘i bo‘ladi. Unda muallifning ism-sharifi, kitobning nomi, nashr etilayotgan joyi, yili, nashriyot nomi va boshqa ma’lumotlar yoziladi.

Titul varag‘i 2 sahifada bo‘lishi mumkin, bu holda u kitobning 2-bet — kolontituli va 3-betlarini egallaydi. Titul varag‘i ma’lumotlarining ayrimlari kitobning 1-sahifasi — avantitulida ham yozilishi mumkin. Ba’zi hollarda titul varag‘i o‘rnida frontispis bo‘ladi. Tekstning mazmuniga qarab kitobda turli usulda sarlavha (rubrikatsiya)lar qo‘yiladi. Ayrim hollarda yirik

sarlavhalar alohida sahifada beriladi. Bunday sahifa shmustitul deyiladi. Kitobning kolontitul va kolonsifrlari undan foydalanish ishini osonlashtiradi. Shuningdek, kitobda mundarija, muqaddima, xotima, annotatsiya, ilova, izoh, turli ko'rsatkichlar, bibliografik ro'yxatlar ham bo'lishi mumkin. Kitob sahifasining hajmi uning nashr formati (bichimi) bilan belgilanadi.

Kitoblar qanday o'quvchilar ommasiga mo'ljallanganligi, maqsadi va mavzusiga ko'ra turlarga ajratiladi. O'quvchilar qatlamiga ko'ra kitoblar ommaviy, mutaxassislar uchun va bolalar uchun kitoblar bo'lishi mumkin. Maqsadiga ko'ra, rasmiy, ilmiy, ilmiy-ommabop, o'quv, adabiy-badiiy, ma'lumotnomma va boshqa xil kitoblarga bo'linadi. Ilmiy kitoblar ichida monografiya keng tarqalgan. O'quv kitoblari — darslik, o'quv qo'llanma, o'quv-uslubiy qo'llanma va boshqa turlarga ajratiladi. Ma'lumotnomalar esa lug'at, ensiklopediya, taqvim, yo'lko'rsatkichlar kabilarga bo'linadi.

### **MAVZUGA DOIR TOPSHIRIQLAR**

1. Uncha qiyin bo'Imagan badiiy asar olinadi va unga muqova ishlanadi.
2. Kitobga 2 ta illustratsiya ishlanadi.
3. Qo'shimcha ashyolar to'planadi.

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Kitob muqovasi qanday bo'ladi?
2. Titul varag'i qanday bo'ladi, qanday turlari bor?
3. Forzas nima?
4. Kitob qanday turlarga bo'linadi?

### **3-\$. KITOBNI BEZASH**

Kitob bezash san'atning mustaqil sohasi sifatida o'z tarixiga ega. Bosib o'tilgan ko'p asrlik yo'l davomida bu san'at davr g'oyasi, xalq taraqqiyoti darjasи, badiiy uslub sohasida turli vazifalarni bajarishiga to'g'ri keldi. Shuning uchun kitobning tashqi ko'rinishi, badiiy bezalishi nashr davri va o'rniqa bog'liq.

Bezak — kuchli ta'sir vositasidir. U asarni boyitishi yoki qashshoq qilishi mumkin. Bu — bezakchi rassomning mahoratigagina emas, balki tasvirlanayotgan voqealarning talqiniga, rassomning dunyoqarashi kabi omillarga bog'liq. Uncha muvaffaqiyatli chiqmagan sujet chizig'ini bo'rttirib yaxshi asarni ustalik bilan bezash mumkin, bu muallifning ham kitob uchun bajargan bema'ni xizmati bo'ladi. Demak, masalani faqat rassomning mahorati emas, balki uning asarni qanday tushunganligi hal etadi. Kitobni bezatish chog'ida rassomning asar sujeti, qahramonlar taqdiri va xattiharakatlariga bo'lgan shaxsiy munosabati ochiladi. Yaxshi kitob avloddan avlodga o'ta borib, asrlar osha yashaydi, xalq uni o'z tafakkuri, munosabati bilan boyitib boraveradi.

Ko'p yillar avval yaratilgan yoki tarixiy voqealarni aks ettiruvchi asarlar uida ishlayotgan rassom oldida davr ruhiga, muhitga asoslanib ishni barcha tafsilotlarni aks ettiruvchi, ammo umuman olganda ishonarli chiqmay qolish xavfi saqlanib turadi. O'z ishiga hozirgi zamon nuqtayi nazaridan yondoshish bezakchi muvaffaqiyatini ta'minlovchi birinchi (lekin yagona emas) shart hisoblanadi.

Kitob bezashda rassom ishni nimadan boshlaydi? Bezaklarni ishlashga aniq tavsiya berish mumkin emas, ammo bu ishga ayrim yondoshuvlar haqida fikr bildirish mumkin.

Rassom badiiy asarda o'zi uchun alohida ma'qul joyini, ko'proq e'tiborni tortayotgan bo'lagini aniqlab, bu asarda uni ko'proq hayajonga solayotgan jihatini belgilab (agar bunday hayajon paydo bo'lmasa, ishga kirishmagan ma'qul) olgandan keyingina o'quvchiga o'z fikrini yaxshiroq yetkazib bera oladigan usullardan birini tanlaydi. Bunday usullar benihoya ko'p. Har bir rassom kitobning mazmuni va janridan kelib chiqib, ma'lum bir holatda ma'lum usulga murojaat etib, o'z g'oyasini chizadi. Asarning badiiy tili esa o'zining xususiyatiga ko'ra qochirimlarga boy bo'lishi mumkin. Adabiyotda mavjud bo'lgan janrlarni har xil ekanligi bezaklarni turlicha bajarish lozimligini ko'rsatib turadi.

Tasavvur qilaylik, qo'limizda bir necha qahramoni bo'lgan asar, muallif ularning turli xislatlarini ochadi, odamlarning munosabatlari va taqdirlari haqida hikoya qiladi. Qator portretlar berish tasvir usullaridan biri hisoblanadi, ularni ko'rib o'quvchi ma'lum bir tasavvur hosil qiladi. Ko'pgina rassomlar aynan shu usulni qo'llaydi.

Agar lirik she'rlar to'plamiga e'tibor bersak, bu yerda yengil chizmalar orqali ifodalangan nazmiy ramzlar o'z aksini topadi. Bu yerda muhimi kitob mazmunini aks ettirish emas, balki o'quvchida zaruriy kayfiyatni uyg'otishdir.

Rassom tarixiy romanni bezamoqchi. Bu joyda sujet lavhasini aks ettirib, ayni paytda badiiy mustaqil bo'lgan, ya'ni muallif matnidan hech qanday izoh talab qilmaydigan rasm eng yaxshi bezak bo'lib qolajagini unutmaslik lozim. Bunday rasm yetuk g'oyani, ijtimoiy hodisalar mohiyatini ochib beruvchi chuqur tafakkurni aks ettiradi, badiiy asardan ozuqa olgan bo'lsa-da, mustaqil san'at asariga aylanib qoladi.

Tarixiy romanni bezash ishi o'sha davrni yaxshilab o'rganishni talab etadi. Davr xislatlarini bilish muhimdir. «Rekvizit»ni tasvirlashga ortiqcha berilmaslik kerak. Tarixiy roman bezakchilari qahramonlari ko'p bo'lgan yirik kompozitsiyalar yaratadilar, negaki yirik hodisalar shuni talab qiladi.

Tasodiflarga boy bo'lgan asarlar albatta, juda jonli bezatilishi lozim. Bu faqat tasvirlar mazmuniga emas, balki ularning yaratilish tarzi va matnda joylashuv o'rniha ham taalluqli. Bunday tasvirlar faqat kishi yuzini yoki bino qismini, qandaydir bir daraxtni aks ettirishi mumkin. Shundan so'ng murakkabroq vazifalar qo'yiladi, ya'ni insonning bir yoki bir necha

tanasi, so'ngra jadal harakatlar, yaxlit manzaralar chiziladi. Nusxadan chizish va doimiy xotira tasvirlari kuzatuvchanlik va tasavvurni o'stiradi, tafakkurni o'tkirlashtiradi. Tafakkur esa o'qilgan matnlarning obrazlarini ko'rsatib beradi.

Har bir rassomning iqtidori va intilishlariga ko'ra o'zi yaxshi ko'rgan mualliflari bor. Xususan, Kamoliddin Behzod Alisher Navoiy asarlariga miniyatyura ishlabgina qolmasdan, balki Alisher Navoiyning o'zi eng yaxshi asarlar yaratishga uni ilhomlantiradi.

Yozuvchi S. Ya. Marshak va rassom V. V. Lebedevlar tomonidan yaratilgan bolalar kitoblari so'z va tasvir, yozuvchi va rassom hamkorligiga misol bo'la oladi.

Ammo bir rassomning muvaffaqiyati aynan bir asarni uning hamkasblari bezatishini rad etadimi, degan savol tug'iladi. Albatta yo'q. Aynan bir asar bir paytda turli nashriyotlar tomonidan turli rassomlarning bezaklari bilan nashr etilayotganligiga misollar anchagina. Bu holatda ham har ikkalasi g'olib bo'ladi. Bu ularning ishini, o'xshashligini ko'rsatmaydi. Har bir rassom asarni o'zicha talqin etadi, uning qahramonlarini o'zicha ko'radi, bezaklar to'xtamiga o'zicha yondoshadi.

Jahon va o'zbek adabiyoti javohirlari, zamondosh yozuvchilarining adabiy asarlari rassomlarimiz va o'quvchilarimizning e'tiborini tortib keldi va hamon tortmoqda. Mahoratlari bezakchi rassomlar va yosh musavvirlar xalqimiz qalbiga o'rashib qolgan qahramonlar obrazlariga qayta-qayta murojaat qilaveradi. Kitob bezagi san'atining kelajagi porloq.

### MAVZUGA DOIR TOPSHIRIQLAR

1. Kitobning muqovasiga rasm ishlanadi.
2. Kitobning forzasi ishlanadi.
3. Kitobning tituli bezatiladi.
4. Kitobning xomaki (maki) namunasi ishlanadi.
5. Kitobga ikkita rasm ishlanadi. Asarning mavzusiga qarab grafik ashyo erkin tanlanadi.

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Kitob bezovchi rassom qanday bo'lishi kerak?
2. Kitob bezashda rassom ishni nimadan boshlashi kerak?
3. Kitobni bezashda rassom nimaga e'tibor berishi kerak?
4. Asarning badiiy tili nima?

### 4-§. ASAR MAVZUSIDAN KELIB CHIQQAN HOLDA XOMAKILAR ISHLASH

Asar qaysi xalqqa mansubligi, yozilgan davriga ko'ra urf-odatlarini, o'ziga xosligi, me'moriy obidalari, asbob-uskunalarini, kiyim-kechaklari, idish-tovoqlari, qurol-aslahalari, hayvonot dunyosi, tabiatni, o'simlik

olami, yozuvi (kalligrafiya) va boshqa ashyolar haqidagi ma'lumotlar kutubxona, muzey, arxiv materiallaridan, fotolavhalardan olinadi. Arxeologik ashyolar, video, audio ma'lumotlar bo'lajak kompozitsiya asari uchun to'planadi.

Amaliy o'qish jarayonida o'quvchilar kasb mahoratini har tomonlama shakllantirib, badiiy asarni tahlil, muhokama qilishni, bezaklarni tanlashni o'rghanadi. Undan tashqari kitobning asosi g'oyasini ochish uchun badiiy asardagi eng muhim usullar (janr) bilan tanishadi, kitobni qay tarzda bezatishni va unga bezaklar ishlashni o'rghanadi. O'quvchi umumiyl reja tuzib, asar qahramonlarining fe'l-atvorini va kitob bezashdagi barcha ashyolarni umumlashtirgan holda o'rghanishi; tasvirning o'z tarixi davriga mos xususiyatini ochib berishi, bundan tashqari moddiyatdan chizma-tasvirlari bo'lishi lozim. O'quvchi hayotni kuzatishga o'rghanishi, tasvirni yodga olib ishlay bilishi va xayolan rasm solishni mashq qilishi, rejalgangan fikrdan kompozitsion asar yaratishni amalga oshira bilish kerak.

## MAVZUGA DOIR TOPSHIRIQLAR

1. Kitobning xomaki nusxasini ishslash.
2. Kitobning muqova, forzas va titulini ishslash.
3. Kitobga bitta rasm ishslash; asarning mavzuiga mos ravishda, kitob hajmi belgilanadi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Badiiy asar qanday tahlil qilinadi?
2. O'quvchining kasb moharati qanday oshiriladi?
3. Asar g'oyasini ochishda nimalarga e'tibor beriladi?
4. Kitob qay tarzda bezaladi?
5. Asar qahramonining fe'l-atvorini rassom qanday izlaydi?
6. Tasvirlarni yoddan ishslashda nimalar qilish lozim?

## VI BOB. XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARIDA KOMPOZITSIYA

### 1-§. ERTAK

O'quvchi tomonidan erkin ravishda ertak asari tanlanadi. Topshiriqni bajarishdan oldin badiiy asar o'qib o'rghanib chiqiladi. O'qituvchi maslahati bilan asardagi mavzuning maqsadi ochiladi va ushbu kitob ustida ishlanadi. Asardagi g'oyaning mazmuni ochilishi eng muhim vazifalardan biridir. Uncha katta bo'limgan hajmdagi kitobni namuna nusxasi va xomaki bezaklari ishlanadi, muqova, kitobning birinchi varag'i bezatiladi.

Bu ishlarni bajarishda o'quvchi kitobning me'moriy qurilmasini olishi, badiiy asar rivoji, uning asosiy g'oyasini ajrata bilishi, undagi kompozitsion

yechimini, asarda ishtirok etayotgan qahramonlarning fe'l-atvorlarini anglay olishi kerak.

O'quv jarayonining amaliy mashg'ulotlar davrida kompozitsiya fanidan o'qituvchi o'quvchilar bilan ma'ruza va suhbatlar olib boradi, kitobni bezatishdagi o'ziga xos qiyinchiliklar, bosmaxonalarning texnik imkoniyatlari bo'yicha kitoblarni bezashdagi muammolarni o'z vaqtida hal qilish, kitob ustida ishslash va uning kompozitsion xarakterini, asardagi mazmun, kitobning texnologiyasi to'g'risida o'quvchilarga umumiy ma'lumot beriladi.

Kitob bezashda asar mazmunidan kelib chiqqan holda, uning o'ziga xos uslubini topish, bezatiladigan kitob qanday shaklga, hajmga ega bo'lishini, undagi chiziqlarni, shaklini, asar mazmuniga mos husnixatni ajratishni, bosmaxonada kitob qancha nusxada ko'paytirilishini va kitobga ishlanadigan bezak va rasmlarni, hajmini bilish — bularning barchasi beriladigan topshiriqlarni bajarish vazifasiga kiradi.

## MAVZUGA DOIR TOPSHIRIQLAR

1. O'quvchi tomonidan erkin ravishda ertak tanlanadi.
2. Ertakning namunasi (maketi) ishlanadi.
3. Badiiy asarga xomaki bezaklar ishlanadi.
4. Kitobga muqova va titul ishlanadi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Ertak kitobga rasm ishlashda nimalarga e'tibor qaratish kerak?
2. Ertak qahramonlari obrazi qanday hal qilinishi kerak?
3. Ertakka ishlangan rasm rangli bo'lishi shartmi?
4. Kitobning hajmi qanday bo'lishi lozim?
5. Ertakning mavzusini ochishda nimalarga e'tibor berish lozim?
6. Ertakda husnixatning roli qanday?

## 2-\$. XALQ ERTAKLARI

O'quvchi o'ziga mavzu sifatida sharq yoki g'arb xalqlarining eng sara asarlarini tanlashi mumkin.

Sharq xalqlaridan: Misr, Eron, Xitoy, Hindiston, Yaponiya, Markaziyo Osyo, O'rta va Yaqin Sharq xalqlarining ertaklari bo'lishi mumkin.

G'arb xalqlaridan: Sharqiy va G'arbiy Yevropa; Shimoliy yoki Janubiy Amerika xalqlari ertaklarini tanlab olish mumkin.

O'quvchi xalq ertaklariga rasm ishlashdan oldin asarni qayta-qayta o'qib shiqishi, uni har tomonlama tahlil va muhokama qilishi, ko'plab ashyoviy lalillarga ega bo'lishi, o'sha davrni, muhitni, uning me'moriy obidalarini, abiat manzarasini, hayvonot va o'simlik dunyosini, turli tabaqaga manub bo'lgan shaxslarni, uy-ro'zg'or buyumlarini, mehnat va jang qurollarini,

toifa insonlarning kiyim-kechaklarini yaxshi o'rganishi lozim. Bo'lajak kompozitsiya asarni to'laqonli, ishonarli chiqishiga yordam beradi.

Ertak asarni bezashda rassomdan talab qilinadigan asosiy jihatlar: uning fantastik fikrlash qobiliyati yuqori darajada bo'lishi, o'ta jo'shqin va viyani nozik his qila bilishi, chizmatasvir va rangtasvir fanlarini puxta bilishi, grafik ashyolar texnologiyasini yaxshi egallaganligi, asardagi asosiy qahramonlar ruhiyatini bo'rttirib ko'rsata bilishi, oddiy o'quvchiga ham jurgan ishi tushunarli va ta'sirli bo'lishi kerak.

## MAVZUGA DOIR TOPSHIRIQLAR

1. O'quvchining o'zi mavzu sifatida sharq yoki g'arb xalqlarining ertaklarini olishi mumkin.
2. Kitobning namunasi ishlanadi.
3. Asarni bezashda o'sha xalqning turmush tarzi xususiyatlarini to'liq ochish va tomoshabinga tushunarli bo'lishiga erishish kerak.
4. Ertakka tegishli ashyolar to'planadi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Xalq ertagiga rasm ishlashda nimalarga e'tibor berish kerak?
2. Kitobning muqovasi, birinchi varag'i, zarvaraq, kitobga ishlanadigan rasmlar to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Ertak qahramonlarining obrazini ishlashda qaysi manbalardan foydalanish kerak?
4. Ertakka rasm ishlashda ranglarning tutgan o'rni.
5. Ertakda husnixat qanday bo'lishi kerak?

## VII BOB. TARG'IBOT VA TASHVIQOT ISHLARIGA DOIR KOMPOZITSIYA

### 1-\$. PLAKAT HAQIDA TUSHUNCHА

Plakat (fransuzcha — e'lon) — ko'rgazmali agitatsiya maqsadlariga sizmat qiladigan tasviriy san'at turidir. Odatda, u qisqa matnli so'zlardan iborat bo'ladi. U kundalik hayotning dolzarb mavzulariga bag'ishlab yaratiladi. Plakat grafik rassomlik san'ati usullarida, ba'zan esa fotosuratlarda, bir xil yoki ko'p ranglarda chizilib tomoshabinning diqqatini tezroq jalb qilish maqsadida ko'chalarga, jamoat binolariga osib qo'yiladi.

Plakat tasviriy san'at turlari ichida eng ommaviy bo'lgani uchun tashviqot va tijorat ishlarida ham keng foydalilanadi. Bundan tashqari u yo'riqnomalar va axborot vositalari vazifasini ham o'taydi. Plakat san'atining xususiyatlaridan yana biri shuki, unda tasvir bilan birga matnlar ham faoliyti etadi. Shu jihatdan qaraganda plakatni misol tariqasida sohalar bo'yicha ham ko'rish mumkin:

- siyosiy tashviqot sohasida;
- tijorat savdo va madaniyat — teatr, kino, ko'rgazmalar va boshqalar;
- ta'lif — har xil qo'llanmalar, turli xil bilimlar to'g'risida plakatlar, monografiya, buyuk insonlarga bag'ishlangan bayram tadbirlari, turli tantanalar va boshqalar;
- hajviy — jamiyatda uchraydigan salbiy hodisalarni, yomon illatlar, jirkanch ko'rinishlarni kulgi ostiga oladi.

Har bir tashviqot va e'londa o'ziga munosib mazmunni ifodalaydigan shakl — kompozitsiya bo'ladi.

Kompozitsiya nima? U lotincha so'z bo'lib, tuzish, joylashtirish, ijod qilish demakdir. Kompozitsiya tasviriy san'atda, shu jumladan plakatda bayon qilish, tuzatish, joylashtirish degan ma'noni bildiradi. Bu san'at asarida har bir ifoda vositasi, har bir belgi o'z o'rnini topishi, joylashuv, ularning bir-biriga munosibligi nazarda tutiladi. Plakatda kompozitsion taqqoslashlar muhim ahamiyatga ega. Uning asosiy vazifasi insonlarni yaxshilikka da'vat etish va ularni g'oyaviy maqsadga ishontirishdan iborat.

Shuning uchun ham u san'atkordan o'ta bilimdon bo'lishni taqozoqiladi, ayni vaqtda san'at asarining sodda, aniq va tez ta'sir etish xususiyatini topa bilish lozim bo'ladi. Afsuski, ko'pincha plakatlar hayotda maxsus ko'rgazma zallarida emas yoki maxsus yoritqichlar bilan ta'minlanmagan bo'ladi, yomg'ir va qorlar ostida, quyosh jaziramasida qoladi, juda noqlay joylarga osiladi. Plakatni shunday ishslash kerakki, har qanday sharoitda ham u o'z vazifasini a'lo darajada bajarsin. Plakat maxsus tasviriy san'at turi ekanligi shundaki, unda ifodalangan keng ma'noli g'oya yuzlab varaqli romanlarda, minglab kadrli kinofilmarda va keng hajmli matolarda, ko'p guruhli dastgohli kompozitsiyalarda emas, balki oddiy tasdiqlangan hajmda ishlanishidadir.

Plakat qayerda ko'rsatilishidan qat'i nazar u o'ta ta'sirchan, yorqin bo'lishi, uning hajmiga va o'lchamiga qat'iy rioya qilinishi lozim.

Plakat asosan insonlarni mardlikka, qahramonlikka, yaxshilikka undaydi. Hajviy (satirik) humoristik yoki dekorativ va faqat husnixatli (shriftovoy) usullar bilan ishlanadi. Plakatning eng muhim belgilaridan biri — badiiy g'oyasining sifatidadir.

Siyosiy plakatlarda buni ko'proq ko'rish mumkin. Plakat keng ommaga mo'ljallangan va ta'sirchan, tez tushunarli tasviriy san'at turidir.

### MAVZUGA DOIR TOPSHIRIQLAR

1. Tanlangan mavzu oddiy, sodda, ommabop bo'lishi.
2. Plakatda so'z, matn va husnixat to'g'ri tanlanishi.
3. Plakatda ranglarning chegaralanganligi.
4. Plakatda ramziy unsurlardan to'g'ri foydalanilganligi. Turli texnik usullarni qo'llash va ishlatishga keng imkoniyat beriladi.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Plakat qaysi san'at turiga kiradi?
2. Plakatda g'oya birlamchimi yoki tasvirmi?
3. Plakat boshqa san'at turlaridan nimasi bilan farq qiladi?
4. Plakatda husnixatning roli.
5. Plakatda so'z va jumlaning o'rni qanday?

### **2-\$. AMALIY GRAFIKA**

Amaliy grafika — tasviriy grafika turlaridan biri hisoblanadi. Grafika usulida ishlangan asarlar: kundalik turmushda zarur bo'lgan qog'oz pul, lotoreya biletlari, zayom qog'ozlari, pochta markalari, aksiyalar, konfet, tamaki (papiros, sigareta), yorliq qog'ozlari, pasport va guvohnomalar, turli korxonalarining mahsulotlaridagi belgi. Shuningdek, har xil buyumlar solinadigan quticha, o'rov qog'ozlari va boshqalarni bezashda ishlatiladi.

### **MAVZUGA DOIR TOPSHIRIQLAR**

1. Amaliy grafikaga oid sharbat yoki konfet qadog'ini ishlash.
2. Istalgan tovarlardan biriga reklama tayyorlash.
3. A-2 formatga ishlanadigan ashyo erkin tanlanadi.
4. A-1 formatga ishlanadigan ashyo erkin tanlanadi.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Amaliy grafikaning asosiy vazifasi nima?
2. Reklamaning ijtimoiy hayotda o'rni qanday?
3. Reklamaning asosiy vazifasi nimalardan iborat?
4. Hozirda reklamaning o'rni qanday?
5. Iqtisodiyotda reklamaning roli qanday?

### **3-\$. REKLAMA**

Reklama — lotincha «*reklamo*» — «qichqiriq» degan ma'noni anglatadi. Tovarning sisati, ularni sotib olishda ko'rildigan naf haqidagi ma'lumot. Bevosita yoki bilvosita foyda (daromad) olish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar yoki mahsulot to'g'risida tarqatiladigan maxsus axborot.

Reklamaning paydo bo'lish tarixi juda qadimiy. Yunoniston va Qadimgi Rimda og'zaki va yozma reklama mavjud bo'lганligi, hatto tovar belgisi qo'yib, tamg'alash yo'li bilan tovarlar reklama qilinganligi haqida ma'lumotlar bor.

Hozirgi shakldagi reklama ilk bor AQShda paydo bo'lган. Bu yerda XIX asrning 2-yarmida birinchi reklama agentliklari faoliyat ko'rsatgan va reklama katta daromad keltira boshlagan. Dastlab yozma reklama xaridorlarni do'kon va unda sotiladigan tovarlardan xabardor qilish vazifasini bajargan. Bu ish taxta lavha yozish va vitrinalar tashkil qilish

orqali amalga oshirilgan. Keyinchalik reklama potensial, ya’ni ehtimol-dagi xaridorga nashrlar orqali murojaat shakliga aylangan — afishalar, kitoblar, jurnallar, gazetalar, axborot-reklama e’lonlari paydo bo’ldi. Reklama ishiga ommaviy axborot vositalari (matbuot, radio, televide niye, kino) jalb etildi.

Reklama bir necha vazifalarni bajaradi:

- 1) tovarlar va xizmatlar bo‘yicha iste’molchilarini xabardor qilish, ma’lumot berish vazifasi — reklama e’lonlari, tovar va xizmatlarning sifati, ishonchiligi, ularni qo’llash sohalari, ishlab chiqaruvchilar va sotib olish yo’llari haqida ma’lumot beradi;
- 2) ishontiruvchi reklama — mavjud tovarga iste’molchi va xaridorlarning moyilligini oshirishga xizmat qiladi;
- 3) eslatuvchi reklama — mavjud, ammo bir qadar unutilgan talabni, xaridorlarning o’zлari uchun ma’lum bo’lgan tovarlarga munosabatini kengaytirish muhim o’rinda turadi.

Bunday reklamalar davriy yangilanib turadigan va mavsumiy tovarlar uchun qo’llanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida reklama xizmatlarining ahamiyati kuchayib, muomala xarajatlari, reklama xarajatlarining hissasi ortib boradi. Reklama tadbirdorlikning alohida bir tarmog’iga aylandi va maxsus qoidalar va qonunlarga muvofiq tashkil etildi.

Har bir firma o’z reklama faoliyatini reklama agentlarini yollash, reklama xizmatini tuzish yoki maxsus reklama agentliklari xizmatlaridan foydalanish asosida amalga oshiradi. Reklamaning samaradorligi ko’p jihatdan talabni o’rganishni tashkil qilishga bog’liq bo’lib, xaridorlar doirasini aniqlash va ularga ta’sir o’tkazish usullariga yordam beradi. Hozirgi davrda reklama matbuot, radio va televide niye orqali olib boriladi, maxsus reklama filmlari namoyish etiladi. Reklama qilish maqsadida plakat, buklet, tovar kataloglari ko’rkam qilib chiqariladi va tarqatiladi.

## MAVZUGA DOIR TOPSHIRIQLAR

1. Ishlab chiqarishdagи bir tovanni reklama qilish uchun o’quvchiga mavzu erkin beriladi.
2. A-1 formatida ishlana di.
3. Ashyo erkin tanlanadi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Reklama nima?
2. Reklamaning tarixi qanday?
3. Reklama ishida ommaviy axborot vositalarining roli.
4. Reklama qanday vazifani bajaradi?
5. Bozor iqtisodiyotida reklamaning xizmatlari qanday?
6. Hozirgi zamon reklamasining roli.

#### 4-\$. PIKTOGRAFIYA

Piktografiya (lotincha «*pictus*» — chizilgan, tasvirlangan) yozuvning rivojlanish bosqichlarida fonetik yozuvdan avvalgi yozuv turi: muayyan axborot mazmunini biron bir rasm yoki qat’iy ketma-ket kelgan rasmlarda aks etuvchi usul.

Amerika hindulari, Tropik Afrika xalqlari, Avstraliya va Okeaniya tub aholisi, Sibirdagi ayrim elatlar (yupagir, nanay va boshq.) orasida tarqalgan va hatto 20-asrgacha amal qilib kelgan.

Piktogrammaning qadimiy namunalar poleolitga (ayrim olimlarning ilkicha neolitga) mansubdir. Shuni ta’kidlash lozimki, poleolit davridagi suratlar bilan piktografiya orasiga chegara qo‘yish mumkin emas. Piktografiya belgilari — piktogrammalar faktik yozuv belgilardan shu bilan farq qilladiki, ular aniq til birligiga bog‘liq emas va ular xohlagan tilda, xohlagancha talqin qilinadi: bir piktogramma muayyan bir so‘z, uning sinonimi so‘z birikmasi. Bir necha ma’noga ega bo‘lgan bir gap yoki bir necha gap tarzida «o‘qilishi» mumkin.

Piktogrammalar tipologik jihatdan ikkiga: tasvirlanayotgan tushuncha yoki predmetlar bilan o‘xhash bo‘lgan (masalan, quyosh belgisi «quyosh», «kunduz» va «kun» tushunchalarini anglatadi) va ramziy shartli (genetik jihatdan bir turdag'i piktogrammalardan kelib chiqqan, lekin obyekt bilan o‘xhashligi yo‘qolgan) piktogrammalarga ajraladi.

Piktografik axborot biringa murakkab belidan yoki bir necha sodda piktogrammaling qat’iy ketma-ketligidan iborat bo‘lishi mumkin. Piktogramma keyinchalik iyerogif hamda fonetik yozuvlarning kelib chiqishiga asos bo‘lgan.

Hozirgi madaniy jamiyatda ham piktogramma yordamchi aloqa vositasи sifatida xizmat qilmoqda: masalan, yo‘l belgilari tizimida, ko‘rgazmalar va xalqaro musobaqalarda ko‘rsatkichlar sifatida qo‘llanadi (ko‘p tillilik sharoitida yoki aksar aholi savodsiz bo‘lgan hollarda bu narsa katta ahamiyatga ega).

#### MAVZUGA DOIR TOPSHIRIQLAR

1. Xalq xo‘jaligining bir tarmog‘i erkin holda tanlanib piktogramma ishlanadi.
2. Hajmi A-2 format, ashyo, oq-qora guash.
3. Erkin mavzuda piktogramma ishslash.
4. Hajmi A-2 format, ashyo erkin.

#### NAZORAT SAVOLLARI

1. Piktogramma nima?
2. Piktogramma yozuv turi sifatida qachondan paydo bo‘lgan?
3. Piktogrammaning hozirgi paytda xalq xo‘jaligidagi ahamiyati.
4. Piktogramma ko‘proq qayerlarda ishlataladi?

## VIII BOB. YOZGI AMALIYOT ASOSIDA AKS ETTIRUVCHI KOMPOZITSIYA

### 1-\$. YOZGI AMALIYOT ASOSIDA O'SIMLIK YOKI HAYVONOT DUNYOSIDAN GRAFIK STILIZATSIYA KOMPOZITSIYASI

Yozgi amaliyot mashg'ulotlari davrida chizmatasvir ishlari vogelikka imkon qadar yaqinlashtirib ishlanadi. Barcha topshiriqlarni bajarish uchun ijodiy fikr yuritiladi, uning obrazli chiqishiga katta ahamiyat beriladi. Kompozitsiyani tasvirlashda chiziqlarning qurilmasidagi soyadan, yorug'-lik-soyadan va rasmning boshqa vositalaridan foydalilanildi. Mukammal ishlangan chizmatasvirdagi ikkinchi darajalilik birinchisining asosiga qurilishi lozim.

O'simlik va hayvonot dunyosini tasvirlash bo'yicha topshiriqlarni oddiy qalam yoki tush pero bilan ishslash mumkin. Chiziladigan tasvirlar rangli yoki oq qog'ozga ishlanadi. Manzarada berilgan topshiriqnini ketma-ket bajarish vaqtida quyidagilarga e'tibor beriladi:

Birinchidan, naturadan chizishdan oldin iloji boricha naturaning xarakterli xususiyatini mo'ljalga olib, uning chiroyli nuqtasi topiladi va ishslash uchun uning eng qulay tomoniga e'tibor beriladi;

Ikkinchidan, gorizont chizig'i topiladi va naturadan ishslash joyi belgilanadi;

Uchinchidan, tasvirlanadigan ishning ko'lami aniqlanadi va ishlanadigan tasvir qog'oz varag'ining yuza hajmiga joylashtiriladi;

To'rtinchidan, ular orasidagi farqlar aniqlanadi.


Beshinchidan, jismlarning bir-biriga nisbatan perspektivadagi farqlari va ularning ma'lum qismining gorizont chizig'iga munosabati belgilanadi;

Oltinchidan, to'g'ri chiziqlarni hisobga olish uchun naturadan tushayotgan yorug'likka, soya va reflekslarga, bundan tashqari atrof-muhitiga va boshqa omillarga e'tibor beriladi.

O'quvchi yozgi ijodiy amaliy mashg'ulot davrida rejashtirilgan mavz uchun turli ashyolar to'playdi. Bu ishlar kurs topshirig'idagi kompozitsiya mavzusining yechimiga yordam berishi lozim.

Ijodiy amaliy mashg'ulotlar o'quv jarayonining uzviy, ajralmas qismi bo'lib, o'quvchilarning ustaxonalarda olgan bilimlarini mustahkamlaydi, ularning bilim ko'lamin kengaytiradi, ijodiy fikrlashga o'rgatadi, grafik ishlarni mutaxassis sifatida muhokama qila olishga, bilim doirasini o'sishiga, natura bilan mustaqil ishslashga, tabiatdagi o'simlik va hayvonot dunyosini yaqindan o'rganishga, ularni tabiat bilan kompozitsion jihatdan bog'lashga o'rgatadi. Amaliy mashg'ulot davrida olingen ko'nikmalar yangi o'quv yilida kompozitsiyadan beriladigan topshiriqlarni bajarishda kerak bo'ladi.

Ijodiy amaliy mashg'ulot o'ziga xos yuksalishdagi shaklga ega bo'lib, grafik rassomni kelgusida ijodiy fikrlashga o'rgatadi.



RANGSHUNOSLIK.




DINAMIKA.

GORIZONTAL.





NATURMORT.



DEKORATIV NATURMORT.




NATURMORT.


DEKORATIVNAYA MASTRIRKTA



KITOB.



**ERTAKLAR.**



ERTAKLAR.

НЕ ЗОЕВАТЬ, А ПОЛИЗАТЬ!




PLAKAT.

СОВЕТСКАЯ


PLAKAT.





PLAKAT.

... OTNI  
ÖLDIRDİ




XON

PLAKAT.


TANAP



**МУСТАҚИЛШЫК  
МЕНГА НИМА  
БЕРДІ ? ...**





















PLAKAT.









PLAKAT.








**AYO** **BU**  
**FOJWA**



RAPPORT.




RAPPORT.



RITM.

STATIKA.



**STATIKA.**



**STATIKA.**




SIMMETRIYA.

STATIY.



SIMMETRIYA.

ТРАДИЦИЯ  
АУДИОКАРДИНАЛ



KONTRAST.



## KONTRAST.

SHAHAK MANZARAB




KONTRAST.


KONTRAST.  
KONTRAST.



SHAHAR MANZARASI.



SHAHAR MANZARASI.



SHAHAR MANZARASI.



KITOB.

SHAHAR MANZARASI.



**KITOB.**



**KITOB.**



KITOB.



мирмуҳсин

# МЕЪМОР

КИТОВ.

# МАТЕРИНСКОЕ ПОЛЕ

©

АНДРЕЙ АНДМАТОВ





KITOB.

БУЛСАТ!

ТАҢ

АТАНДЫР





GYRK

REKLAMA PLAKATI.

# CYRK




REKLAMA PLAKATI.

# GΥΡΙΚΗ





REKLAMA PLAKATI.

# GYRK







REKLAMA PLAKATL


REKLAMA PLAKATL  
ITALIA PLAKATL



**PIFTOGRAMMA.**



IATA



SP

UIC

X'67



LVA



Pg



NPS




O'72



DOT'74



Pg



O'72

UIC

DOT'74

DOT



TC



S/TA



D/FW



SP



O'72



D/FW



ATA



Pg



TA



BAA ADCA



ICAO

DOT'74

ADV



O'72



ICAO






NRR





UIC

## PIFTOGRAMMA.




PIFTOGRAMMA.



**PIFTOGRAMMA.**

AMMAGBOTIN  
PIFTOGRAMMA



STANOKLI GRAFIKA.

STANOKLI GRAFIKA



23. V. MOETI ČIVILIS



STANOKLI GRAFIKA.



Yozgi ijodiy amaliy mashg'ulot o'quvchilar tomonidan to'plangan materiallar asosida ishlanadi. Unda o'qituvchi bilan kelishgan holda o'quvchilarga o'simlik yoki hayvonot dunyosiga oid bo'lgan kompozitsiya topshirig'inи bajarish uchun erkin tanlash huquqi beriladi.

O'quvchi topshiriqni bajarish uchun quyidagilarga e'tibor berishi kerak:

a) *o'simlik dunyosi*: o'quvchi o'zi tanlab olgan o'simlikning boshqa o'simliklardan nimasi bilan farq qilishini, o'ziga xosligini, ko'rinishi, bo'yи, tabiatи, guli, mevasi, bargi, shoxlari, tanasi, ildizi va eng xususiyatlар jihatlarini realistik shaklda tasvirlab, oddiy qog'ozga qalam yoki grafik ashyolarning birida chizadi.

b) *hayvonot dunyosi*: uy hayvonlaridan (ot, sigir, qo'y, eshak, tuya, echki va boshqalar), parrandalardan (tovuq, xo'roz, g'oz, o'rdak, kurka va boshqalar), yovvoyi hayvonlar (yo'lbars, kiyik, ayiq, tulki va boshqalar) va yovvoyi parrandalar, hasharotlar, kemiruvchilar, suvda yashaydigan jonivorlardan birini tanlab, ko'rinishi, bo'y-basti, boshqalardan farqli jihat, chiroyli kompozitsion holatda topilishini naturadan kuzatgan holda ko'plab qoralamalar ishlash talab qilinadi.

Topilgan realistik chizmatasvirni yanada soddalashtirish, oddiylashtirish va yaxlit ko'rinishga aylantirishda uning o'ziga xosligi, holati, harakati, xarakterliligi saqlangan holda, topshiriqning ishonarli chiqishida siluetdan foydalaniadi. Siluet — shaklning bir ko'rinishi bo'lib, plastik tasvirning yakunlangan yechimi sifatida tushuniladi. Bu tushunchalar atrof-muhitdagi yorug'likka yoki yorug'-soyalarga bog'liq. Siluet faqat ko'rinish, yoritilishning, butun borliqni yaxlit holda sezish emas, shu bilan birga borliqdagi barcha narsalarning shakllarga boy bo'lishi hamdir.

## MAVZUGA DOIR TOPSHIRIQLAR

1. Topshiriq 40×60 sm li planshetga ishlanadi.
2. To'rtta ish bajariladi: birinchisi realistik uslubdagi rasm qalam bilan, ikkinchisi tush yoki guashda, uchinchisi oq fonga qora rangda, to'rtinchisi qora fonga oq rangda topilgan kompozitsiya ishlanadi.
3. Topilgan kompozitsiya oddiy, sodda, yaxlit ko'rinishga ega bo'lishi, oddiy tomoshabinga ham tushunarli bo'lishi kerak.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Stilizatsiya nima?
2. Stilizatsiyalash nima uchun kerak?
3. Stilizatsiyada nima uchun rang chegaralangan?
4. Stilizatsiya ishlashda asosan nimalarga e'tibor berish lozim?

## **IX BOB. KITOBNI BEZASH VA UNI TASVIRLASH**

### **1-\$. KITOBNI BEZASH VA UNI TASVIRLASH HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHА**

3-kursdan boshlab maxsus ustaxonalarda kitob kompozitsiyasi bo'yicha murakkablashgan topshiriqlar beriladi, kitobning namunasi va uning bezaklarini ishslash tushuntiriladi.

3-kurnda eng muhim vazifalar — badiiy adabiyotdagi asarlarning g'oyasini, uning mazmunini, unda ishtirot etayotgan obrazlar ruhiyatini ochishdir. Kitobga bezaklar (illustratsiya)ni ishslash jarayonida ish usuliga juda katta ahamiyat berish lozim. U badiiy adabiyotdagi asarning qahramonlari ruhiyatiga, fe'l-atvori (xarakteri)ga alohida mos kelishi, ma'-nosini matnga bog'liqligi, bundan tashqari ishtirot etayotgan asardagi fe'l-atvorlarning bo'rttirilgan holatda topilishi, undagi imo-ishora va ifoda tasvirdagi voqelikka mos kelib, asarning ma'nosini to'liq ochishga javob berishi kerak. Kitobdag'i bezaklarning mohiyatidan tashqari, bezaklardan biriga tugallangan hajmdagi chiziqlar talab qilinadi.

Barcha bezaklar xomaki holda ishlanadi, tugallangan asarning asl nusxasi grafik ashyolarda bajariladi.

Amaliy o'qish jarayonida o'quvchi har tomonlama mahoratini shakllantirib, badiiy asarni tahlil qilishni, bezaklar mohiyatini tanlashni va kitobning asosiy g'oyasini ochishni, badiiy asardagi eng muhim usullar (janr) bilan tanishishni, kitobni qay tarzda bezatishni va unga bezaklar ishslashni o'rganadi. O'quvchi umumiy rejani farqlab olib, asar qahramonlari fe'l-atvorlarini va kitob bezashdagi barcha ashyolarni umumlashtirilgan holida o'rganishi lozim bo'ladi. Tasvirning o'z tarixi davriga mos bo'lishi, tasvirlar moddiyatdan chizilgan bo'lishi uchun o'quvchi hayotni kuzatishga o'rganishi, tasvirni yodga olib ishlay bilishi va xayolan rasm chizishni mashq qilib, rejalangan fikrni amalga oshira bilishi kerak.

### **MAVZUGA DOIR TOPSHIRIQLAR**

**1-topshiriq.** Uncha katta bo'limgan badiiy asarga kompozitsiya va natura:

- a) kitobning muqovasini bezash;
- b) kitobning forzasini ishslash;
- v) kitobning tituliga ishlov berish;
- g) kitobga ikkita illustratsiya ishslash.

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Badiiy adabiyotdagi asarni bezashda eng muhim vazifa nima?
2. Badiiy asarni tahlil qilishda nimalarga e'tiborni qaratish kerak?
3. Badiiy asarga turkum bezaklar ishslashda nimalarga e'tibor berish kerak?
4. Badiiy asarni bezashda nimalarga e'tibor berish kerak?

## 2-§. ZAMONAVIY O'ZBEK ADIBLARI BADIY ASARLARINI BEZASH

3-kurs talabasi zamonaviy O'zbekiston mavzusida, yurtimizdag'i mualliflarning ko'pchilik e'tiboriga molik bo'lgan badiiy asariga bezak ishlashi mumkin.

Har bir semestr boshida ish rejasi tuziladi va uni grafika kafedrasи ko'rib chiqib, topshirqlar mavzusining ro'yxati tuziladi, taqvimi bilish jadvalida ish rejasini bajarish muddati belgilanadi. Bundan tashqari muzey, ko'rgazma, korxonalar, kutubxonalarga boriladi, shu mavzularga oid ma'ruzalar, suhbatlar o'tkaziladi.

Mavzuga bog'liq bo'lgan ashylarni bir joyga jamlab, ulardan oqilona foydalanish o'rganiladi, quyi guruhlarda darslar aniq maqsadlarga yo'naltirilishi kerak, o'quv yili davomida o'quvchi topshirqlarni o'z vaqtida bajarishga o'rganadi.

Kompozitsiya fanidan bir semestr uchun topshirqlar o'quvchiga tushuntiriladi, negaki bu topshirqlarni bajarish uchun kerakli ashylarni moddiyatdan qidirib topishi lozim bo'ladi.

Kurs rahbari grafika fanidan beriladigan topshirqlarni nazorat qiladi, ish rejalarining bajarilishini kuzatib boradi va quyi kurslardagi kompozitsiya fanidan dars berish usullarini va maxsus ustaxonalardagi ish jarayonini grafika kafedrasida muhokama qilib turadi.

3-kursda o'quvchilar kompozitsiyadan umumiy bilimga ega bo'lishlari bilan bir qatorda, san'atning barcha yangiliklarini yaxlit o'zlashtiradilar. Kitob bezashdagi texnologik jarayon bilan tanishib chiqadilar.

Kitobga kompozitsiya ishslash jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga quyidagi bilimlarni beradi: bosmaxona, husnixatning ahamiyati, qog'oz turlari, kitob muqovalash uchun ishlataladigan ashylar, kitob namunasini ishslashning asar mazmuniga bog'liqligi, badiiy asar ruhi, kitobdag'i tasvirlar uslubi, ishslash jarayonida asar qahramoning ruhiyatini ochish, kitobning lavhalarini bezash, kitob ichidagi naqsh bezaklarini o'rganish, kompozitsiyani aniq tushunib ishslash va oxirgi uzun hoshiyasi, kitobning birinchi varag'i, kompozitsiya betidagi rasmlarni ishslash lozim.

Beshinchi semestr davomida o'quvchi bilan olib boriladigan darslar turlari:

1. Nazariy fanlardan ma'ruzalar;
2. Birinchi darslardanoq badiiy asarni mukammal ishslashga o'rgatish. O'zbek adiblarining asarlarini tahlil qilib, suhbat uyushtirish;
3. Kitobning, namunasi (maketi) va uning xomakisi ustida ishslashni o'rgatish;
4. Nashriyotdagi ish jarayoni va uni imkoniyatlarini ko'rsatish uchun sayohatlar uyushtirib, o'quvchilarni tanishtirish;
5. Avval nashrdan chiqqan kitoblar namunalari haqida suhbat va muhokamalar o'tkazish;

6. Kitob san'atida namuna va xomakisi ustida ishlash.  
O'quvchining mustaqil ishlarini semestr davomida doimiy ravishda nazorat qilib, yutuq va kamchiliklarini muhokama qilib turish lozim.

## MAVZUGA DOIR TOPSHIRIQLAR

- 1-topshiriq.** Zamonaviy O'zbekiston mavzusida tarkum ishlar ishlash:  
a) uncha katta bo'Imagan kitob namunasi;  
b) kitobning muqovasi;  
v) kitobning forzasi, tituli;  
g) xomaki bezaklar.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Badiiy asarni tanlashda nimalarga e'tibor berish kerak?
2. Badiiy asarda mavzu birlamchimi yoki tasvirmi?
3. Mavzuni to'liq ochishda nimalarga e'tibor berish kerak?
4. Badiiy asardagi asosiy qahramon obrazini to'liq ochishda nimalarga e'tibor berish kerak?
5. Kitobni bezashda hajmning roli qanday?

## 3-§. KITOB BEZASHDA ASAR MOHIYATINI BELGILOVCHI USLUB

Beshinchi semestrdan o'quvchi tomonidan O'zbekiston yoki chet el adiblarining badiiy asarlariga uncha katta bo'Imagan kitob namunasi (maketi)ni va bundan tashqari, topshiriqqa xomakilar (eskiz), bezaklar (illustratsiya) bilan kitobning birinchi varag'i (titul) va muqova ishlanaadi.

Kompozitsiyani kitobning birinchi varag'i, kitobdagi so'nggi tushirish yo'lini va kitobning yoymasini ishlash uchun o'zbek yoki jahon xalqlari mumtoz badiiy adabiyoti asarlariga murojaat qilish mumkin, o'quvchilar mavzuni o'zlarining xohishlari bo'yicha tanlaydilar.

Topshiriqni bajarish uchun quyidagilar amalga oshiriladi: tushirish yo'li, kitobning bezak lavhasi, muallifning ismi-sharifi, uning yoyma yechimi, ikki-uchta bezaklar bilan kitobning birinchi varag'i asl nusxada bajariladi, topshiriqning boshqa qismlari esa xomaki holda ko'rsatiladi.

## MAVZUGA DOIR TOPSHIRIQLAR

1. Chet el adiblarining uncha katta bo'Imagan badiiy asarlarini bezash.
2. Kitobning namunasi.
3. Asarga xomaki bezaklar.
4. Kitobning forzasi va tituli.
5. Kitobga kerakli ashyolar to'plash.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Mavzu tanlashda nimalarga e'tiborni qaratish lozim?
2. Badiiy asarni ishlashda grafik ashyolarni qaysi fazilatlarini inobatga olish kerak?
3. Kitobni bezashda o'quvchi asosan nimadan ishni boshlashi kerak?
4. Kitobning hajmi, uni bezashdagi roli qanday?
5. Kitob qanday holatda tugallangan bo'ladi?

### **X BOB. PLAKATNING IJTIMOY HAYOTDAGI O'RNI**

#### **1-§. PLAKAT KOMPOZITSIYASI**

Kompozitsiya plakatining o'quv ish rejasidagi eng asosiy vazifalari: o'quvchi plakatning o'ziga xosligi (spesifikasi)ni o'zlashtirgan bo'lishi, asar qahramoni (obraz)ning ruhiyatini, uning fikrlashini, siyosiy chaqiriqlarini hayotga tatbiq eta olishi, ommaga oddiy, sodda, badiiy shakllar orqali yetkaza olishi kerak bo'ladi.

Hozirgi zamonaviy plakatlar aniq maqsadga yo'naltirilganligi bilan xarakterlanadi, inson obrazi, ruhiyatining o'ziga xosligi, badiiy fikrning aniqligi bilan ajralib turadi.

Plakat turlari ko'p qirraliligi bilan ajralib turadi: kino, teatr, sirk yoki konsert afishalari, savdo-tijorat (reklama) usulida bo'lishi mumkin, bularning hammasi turmushning bir qismidir. Shundan kelib chiqib, o'quv jarayonining asosiy mazmunini kurslardagi kompozitsiyadan plakatga oid topshiriqlarni barcha turidagi mavzularga ega bo'lgan plakatlar bo'yicha kiritish lozim.

O'quvchi o'quv jarayonida bir qancha mavzulardagi plakatlarni bajaradi: hukumat qarorlari va chaqiriqlariga bag'ishlangan, xalq xo'jaligining turli sohalarida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar, ishlab chiqarish ilg'orlarining ish tajribasi, qishloq xo'jaligi, fan va madaniyat eng muhim siyosiy voqealar, xalqlarning tengligi, tabiatni muhofaza qilish, tibbiyot, maorif va boshqa eng muhim mavzular.

O'quvchi chuqur va har tomonlama siyosiy voqelikni tushunishi va fanlarning barchasidan, ijodni umumiy (kompleks) holatda o'zlashtirib, plakatning texnologik usullarini egallagan bo'lishi kerak.

Kompozitsiya plakatdan 3-kursning o'quv rejasida eng asosiy maqsadlar — berilgan mavzuning g'oyasini, ma'nosini to'laqonli ochish, undagi asar ruhini aniq ko'rsatish, tasvirdagi fe'l-atvorning ta'sirchanligiga erishish.

Plakat san'atining asosiy g'oyasi masifikuraviy, hayotiy haqiqatni, aniq tezkor harakatni va asardagi g'oyaning yechimini keng ommaga tasvirli tushuntira olishdadir.

O'qituvchi o'quvchilar bilan birga quyidagi mavzularda suhbat olib borishi kerak: plakatdagi ijobiy qahramonlarning ruhiyatini ochish, plakat uchun hajviy qahramonlarni izlash, san'at asarida badiiy jumlalarni to'g'ri

tuzish va uni tasvir bilan bog'lay olish. O'quvchilarga siyosiy, madaniy, tomoshabop, ilmiy-ommabop, yo'riqnomaviy (instruktiv), ko'rgazmali (reklama), tijorat yoki varaqa va shiorlarni badiiy bezatishdagi turli xil plakatlarning mohiyati va maqsadlari nimaga yo'naltirilganligiga e'tiborni qaratish.

O'quvchilarga zamonaviy usullarda plakat asarlarni ko'paytirishni yoki amalda bosma shakldagi, matbuotda bosib chiqarishdagi ish jarayonini ko'rsatib, mualliflik, musahhihlilik, tuzatish kiritish, tahrir va plakat asarini bosmaxona usulida ko'paytirishning mohiyati, uning sifatini qay tarzda to'g'rilash mumkinligi haqida ko'rsatmalar berish lozim.

O'zbekiston xalq xo'jaligidagi ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, fan va madaniyat hamda boshqa sohalarni kelajakda yuqori cho'qqilarga ko'tarish va uni mustahkamlashda plakatning hissasi juda katta ekanligini o'quvchi bilishi lozim.

Rangtasvir va chizmatasvirlarda haqiqiy vogelikni aks ettiruvchi mutaxassislar kabi mahoratdan tashqari, o'quvchida asar ruhiyatini, g'oyasini to'g'ri anglash tuyg'usini tarbiyalash lozim va uning qobiliyatini umumlashtirishni o'rganishga yo'naltirish, hayotdagi vogelikni ajrata bilihga, farqlashga asarning eng yuqori cho'qqisidagi holatni tanlay bilihga, mavzuni, vogelikni ishonarli, yangicha yo'l bilan haqqoniy yoritishga va xalqimizning o'ziga xos qiyofasii, kompozitsiyadagi g'oynani, undagi fikrni aniq tasvirlay olishga o'rgatish katta ahamiyatga ega.

O'quvchini quyidagilarga o'rgatish lozim: muntazam ravishda siyosiy vogelikni kuzatib borish, plakat ishslash uchun turli mavzularga oid xomaki ashyolarga, chizgilarga ega bo'lishi kerak. Xalq xo'jaligining turli sohalariga tashriflar, katta ishlab chiqarish korxonalariga safarlar, ilg'or ishchilar bilan uchrashuvlar uyushtirish lozim. Bunday uchrashuv va tashriflarni yozgi amaliy o'quv mashg'ulotlar davrida amalga oshirish kerak.

Plakat kompozitsiya fanidan turli xil topshiriqlar bajarilayotgan ish jarayonida til-adabiyot va ijtimoiy fanlar o'qituvchilari bilan hamkorlikda, O'zbekistonning o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadlarini yoritish, hukumatning ichki va tashqi siyosatiga oid, fan, madaniyat va boshqa sohalarda plakatlar yaratish bo'yicha o'quvchilar kafedralar bilan bog'liq holda ish olib borishi kerak.

Kompozitsiya darsida plakat ishslash uchun avvalo uncha qiyin bo'Imagan topshiriqlardan boshlash lozim. Masalan: tijorat (reklama) yoki sayyohlikka (turistik) oid plakatlarni ishslash mumkin, bunday plakatlarni ishslash jarayonida o'quvchi asta-sekin umumiyo yo'nalishlardan chekinib, har bir plakatning o'ziga xos usullarini tushunib boradi.

Har bir beriladigan topshiriqni bajarishdan avval o'qituvchi bilan suhbat qilinadi, ushbu mavzuni to'laqonli ochishda, o'quvchining imkoniyati va g'oyaning ahamiyati inobatga olinadi. Kompozitsiyani 60×90 sm va 70×108 sm tasdiqlangan hajmlarda plakatda bajarishi lozim.

## **2-§. PLAKAT KOMPOZITSIYASINI ISHLASH USLUBI**

O'quvchi 3-kursga o'tganda texnologik usulda plakat bajarishda qog'oz, bo'yq, foto va asarni to'laqonli yoritish uchun kerak bo'ladigan boshqa ashyolardan foydalanadi; maxsus ustaxonalarda beriladigan topshiriqlar kompozitsiyaga yuklanadigan talab murakkablashib, plakat ishslash usullari ham qiyinlashadi; asosiy vazifa plakatning g'oyasini va ma'nosini, insonlar obrazini ochish orqali kompozitsiya mavzuyini ishonarli chiqishiga erishish. Buning uchun o'quvchidan qo'shimcha chizmatasvirlar bajarish talab etiladi. O'quvchilar kompozitsiyadagi jumlalarni joylashtirishga, husnixatga, asardagi g'oyaning eng yorqin ranglarda bo'lishiga katta ahamiyat berishi kerak.

O'quvchi nashriyotdagi rassom, badiiy muharrir (redaktor)ning ish jarayoni bilan tanishishi, bosmaxonadagi plakat asarlarni bosib chiqaradigan texnologik jarayon bilan tanishib, yaratiladigan san'at asarini bosmaxonanining texnologik imkoniyatlaridan kelib chiqib ishlashi talab qilinadi.

Beriladigan plakat topshirig'i asl nusxada bajariladi.

3-kursda o'quvchi o'zining musavvirlik qobiliyatini namoyon qila olishi, mustaqil ravishda mavzu tanlashi va mutaxassislarga xos ravishda siyosiy plakatlarni ishlay olishi kerak. U o'z iqtidorini ishga solib, plakatning o'tkir qirrasini tashviqot sifatida ko'rsata olishi, plakat ishslash jarayonida uning tezkorligini o'zlashtirishi shart.

Uning oldida o'ta muhim, qiyin vazifa turadi, 2-kursdagagi beriladigan topshiriqlarga nisbatan, asardagi chizmatasvir va mavzudagi fikrlar ham murakkablashadi.

Plakatda 3-kurs talabasi bajaradigan ishlar, nashriyotning va bosmaxonanining talablariga to'liq javob berishi shart.

Husnixat bilan ishslashga juda katta e'tibor bilan qarash va turli xildagi texnik vositalarni o'rganish, foto, aerografda ishslashni, kompyuter imkoniyatlarini egallashi va boshqa ish usullarini yaxshi bilishi shart.

### **MAVZUGA DOIR TOPSHIRIQLAR**

1. Mavzuga kerakli ashyolar to'plash.
2. Turli grafik ashyolarda izlanib ko'rish.
3. Plakatda ramzlar va asosiy obraz ustida ishslash.
4. Plakatda so'z va matnga katta e'tibor berish.
5. Plakatda o'ziga mos (shrift) husnixatni topish.
6. Plakat mavzusiga mos rang tanlash.

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Plakatda mavzu tanlashda nimalarga e'tibor berish lozim?
2. Plakat asarda ramzlarning roli qanday?
3. Plakat uchun obraz qanday izlanadi?

4. Plakatda so'z va jumlaning ahamiyati qanday?
5. Plakatga tasdiqlangan hajm bormi?
6. Plakat qanday texnik usullar orqali ko'paytiriladi?

## XI BOB. DASTGOHLI GRAFIKA KOMPOZITSIYASI

### 1-§. DASTGOHLI GRAFIKA KOMPOZITSIYASI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHА

3-kursda dastgohli grafika kurslari uchun kompozitsiya va uning mazmuni bosqichma-bosqich o'tiladi.

O'quvchi beshinchı semestrga o'tib, maxsus ustaxonalarda dastgohli grafika kompozitsiya darslaridan topshiriqlarni grafik ashyo usullarida ishlab ko'rsatishi kerak. U malakali bilimlarni quiyi kurslarda olgan bo'lishi shart. Berilgan topshiriqdagi mavzuning g'oyasini aniq asar mohiyati orqali yecha olishi kerak. Jamiyatdagi eng ilg'or kishilarni o'ziga xos ko'rinishda ko'rsata bilishi; o'quvchilarning fikrlari va o'y-xayollari, to'plagan tajribalari ishlanadigan asar qahramonlarining obrazida davr nafasi sezilishiga, asardagi asosiy g'oya va ma'noni chuqurroq ifodalashga qaratilishi kerak.

O'quvchi kompozitsiya ishslash jarayonida o'zida bor bo'lgan iqtidorini ishga solib, barcha grafik ashyolarda ishlab ko'rib, o'z mahoratini oshirishi shart. Bularga chizmatasvir (naturadan etud) moddiyatdan turli qoralamalarni mashq qilishi, badiiy adabiyot asarlari, arxiv materiallari, foto lavhalar, muzey, teleradio ko'rsatuv va eshittirishlar, bulardan tash-qari turli hujjatlarga, manbalarga asoslanib ishlashi kerak. O'quvchi xomakilarni izlash jarayonida ashyolarning o'ziga xosligini hisobga olib, vazifani bajarishi kerak. Bular tush, pero, guash, pastel, sangina, souv suv bo'yoq, qalam, rangli qalamlar va boshqalar bo'lishi mumkin.

### MAVZUGA DOIR TOPSHIRIQLAR

1. Dastgohli grafika mavzusi dolzarb va zamon talabida bo'lishi.
2. Dastgohli grafikada mavzuga mos ashyo tanlash.
3. Badiiy asar obrazi ustida ishslash.
4. Dastgohli grafika kompozitsiyasi turkum yoki yakka tartibda bo'lishi mumkin.
5. Kurs ishining bittasi grafik ashyoda tugallanadi va qolganlari xomakli holida ko'rikka baholash uchun qo'yiladi.

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Dastgohli grafikada mavzu tanlashda nimalarga e'tibor berish lozim?
2. Dastgohli grafikada kompozitsiyada shakllarning o'zaro munosabati qanday bo'lishi kerak?
3. Dastgohli grafikada badiiy obrazlar qanday hal qilinadi?

4. Turkum grafik asarlarning bir-biriga nisbati o'zaro bog'liqligi nimada?
5. Dastgohli grafikada ashylarda ishlashda nimalarga e'tibor qaratish kerak?

## 2-§. DASTGOHLI GRAFIKA KOMPOZITSIYASI VA UNING BOSQICHLARI

O'quv yurtlari oldida yosh ijodkor rassomni shakllantirish va unga ko'maklashish maqsadida kompozitsiya fanini o'qitishdek jiddiy masala turibdi.

Yosh rassom o'quvchini o'qitish jarayoni bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan 2 ta asosiy bo'limni o'z ichiga oladi. Shulardan biri va eng muhimmi yosh rassomning dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish masalasidir. Shu sababli murabbiy dastavval o'quvchi bilishi lozim bo'lgan adabiyotlar, rassomlar va ularning asarlari haqida, muzey va teatrler faoliyati haqida tushuncha bermog'i lozim.

Ikkinci bo'limi ixtisosiy mahoratni oshirish uchun o'qitishga qaratilgan. Ya'ni, har bir mahoratli rassom bilishi kerak bo'lgan va yosh mutaxassisni qurollantirish sohasida zarur bo'lgan badiiy ifodaning turli vositalari va boy imkoniyatlarining asosi bu tanishtirish va ukdirishdir.

O'quv dargohida yosh rassomga kompozitsiya predmetini o'qitishda unda chuqur kuzatuvchanlikni va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish zarur. Atrof-muhitda bo'layotgan turli hodisalardan ikkinchi darajali narsalarni ajratib ola bilish badiiy ifodalash vositalaridan foydalanishni bilish va tomoshabinga katta mahorat va aniqlik bilan yaratiladigan asarning g'oyaviy mazmunini yetkazish rassomdan talab etiladi.

Ammo bu asosiy sifatlarni tarbiyalash bilan birga har bir yosh rassomning ijodkor bo'lib yetishishida ularning shaxsiy xususiyatlarini ehtiyyotkorlik bilan asrash va saqlay bilish kerak. Buning uchun yosh rassomning imkoniyatidan kelib chiqib, undagi qobiliyatni va ijodkorlik sifatlarni diqqat va sabr-toqat bilan o'rganish kerak.

Bu qachon amalga oshishi mumkin? — degan savol tug'iladi. Agar pedagog har qanday intilishlardan voz kechib, o'zi sevgan usul va janrlar bilan bog'lanib qolmasagina uni amalga oshirish mumkin.

Yosh rassom bilim olayotgan dastlabki davrlarda tajribali mutaxassisning yordami juda zarurdir. Bu narsa, ayniqsa o'quvchi kurs ishi yoki diplom mavzusini tanlagan davrida o'z aksini topishi kerak.

Mavzu tushunchasi juda keng bo'lib, o'z ichiga asosiy g'oyalar doirasini qamrab oladi. Rassom o'z asari orqali tomoshabinga ko'rsatmoqchi bo'lgan ichki kechinmalari, his-tuyg'ularini mavzu orqali ko'rsatadi.

Muhimi shundaki, tanlangan mavzu rassomning hayotiy tajribalari dan kelib chiqadi va albatta imkon qadar rassomning imkoniyatlariga mos kelmog'i zarur. Shuning uchun mavzu tanlab o'tirilmaydi, balki uning dolzarbli munosabati bilan yoki rassom tasodifan qiziqishi natijasida

yuzaga keladi. Ba'zan shunday mavzuni ko'p o'ylab tanlash rassom yaratayotgan asarning hayotiy emasligiga, o'zidan to'qib chiqilgan, ya'ni soxta bo'lishiga va nihoyat kompozitsiyaning ko'p marotaba qaytarilishi ga olib keladi va bunday asarning tomoshabinga bo'lgan ta'sir kuchi yo'qladi. Rahbarning vazifasi, talabaga o'z vaqtida bu muvaffaqiyatsizlik sababini tushuntirish va uning imkoniyatlari darajasida mavzu ishslash lozimligini bayon qilishdan iborat.

O'quvchi tomonidan mazmunli sujet ishslash davrida o'qituvchidan alohida diqqat-e'tibor talab etiladi.

«Sujet — mavzuning aniq ifodalanishidir. Ba'zan shu yoki shunga o'xshash tasvir umuman boshqa mavzuda yoki ko'rinishda aks etishi mumkin.

«Mavzu shunday narsaki, sujet xarakterini va qanday janrdaligini (tarixiy, maishiy, jangovar, manzara, portret, natyurmort) aniqlamasdan turib, uni aniq mujassam etmog'i lozim. Asosan o'zini to'lqinlantirgan g'oyani aniq va ta'sirli qilib yetkazishi, qulay xarakterni o'zi aniqlashi kerak.

Ayni yosh rassom «sujet» borasida ishslash jarayonda o'zini ko'rsatishida, uning imkoniyati va qobiliyati to'laroq ochilishida asosan o'qituvchi katta rol o'ynaydi. Ba'zan yosh rassom o'z imkoniyatidan kelib chiqmagan holda yoki o'z qobiliyatini to'g'ri baholamay sujet tanlashda katta xatoga yo'l qo'yadi. Shunda darhol o'quvchining xatolarini tushuntirish lozim. Chunki asarning badiiy ahamiyati faqat mavzuga bog'liq emas, balki uning sujetiga ham bog'liq bo'ladi. Ya'ni, boshqacha aytganda, rassomning shaxsiy qobiliyatiga mos ravishda topilgan mavzuga bog'liqdir. Shuningdek, asarning g'oyaviy mazmunining ta'sirchanligi, psixologik o'tkirligiga va aniqligiga ham muhim e'tibor qaratish lozim.

Ba'zan asarning g'oyaviy mazmuni yaxshi o'ylab ko'rilmaganligi va tezkorlik bilan ishslash natijasida ham asarning ta'sirchanligi susayishining guvohi bo'lamiz. Shuning uchun o'ta ta'sirli holatni tanlay bilish, o'sha holatdagi bo'layotgan voqeani «tiniqligicha» har bir ko'rinishda tutib qolish zarur. Har bir holatda ham asosiy maqsadga doim hissiyot bilan erishib bo'lmaydi. Bunga mantiqiy tahlil va xarakterni tanlash yo'li bilan ham erishish mumkin. Bu sifatlarni rassomda shakllantirish kerak.

Mavzu singari, asarning mazmunida ham zamонавиyl икактешлил ажетиши лозим. Rassom faqat o'qib o'rganishlar bilan cheklanmay, o'z dardi va kechinmalari bilan ham ish ko'radi, shuningdek, u qancha o'rganmasin, bular hayotdan olingan jonli taassurotlari va kuzatuvlar o'rnini bosa olmaydi.

Aynan hayotni yuzaki kuzatishlar natijasida sovuq, hissiz asarlar yuzaga keladi.

Asarning hayotiyligi va badiiy haqiqati faqat oddiygina moddiyatdan ko'chirib olishdan iborat emas. Albatta har bir asarni yaratish uchun katta miqdorda xomaki mashq — etudlar naturadan ishlangan chizgilar bo'lishi

shart. Bular faqat rassom uchun xomashyo sifatida asqotadi. O'zi o'ylab topib, qandaydir mexanik tarzda ishlangan bir voqe — hatto uni rassom o'z boshidan kechirgan bo'lsa ham, haqiqiy san'at asari bo'lmaydi. Bu yagona natijaga — badiiy haqiqatning yo'q bo'lishiga olib keladi. San'at asari, qachonki unda hodisalar va obrazlar chuqr va yorqin tiniqlash-tirilgan, ya'ni o'ziga xos xislatlari bo'rtib turgan bo'lsagina haqiqiy san'at asari hisoblanadi.

O'ziga xoslikka esa faqatgina katta ijodiy izlanish natijasida erishiladi. Bunda rassom o'z boshidan kechirgan, ko'zi bilan ko'rgan, bilganlarini umumlashtirish, qo'shimcha kiritish, ajrata bilish yo'li bilan o'ziga xos tarzda aks ettiradi.

Asar bir qarashda qancha hayotiy bo'lsa, shuncha sodda ko'rindi. Kompozitsiyada ham sujetdagidek muallifdan qancha ko'p umumlashma talab etilgan bo'lsa, yaratilgan asar ham o'zining haqqoniyligi bilan shuncha ko'p tomoshabinni ishontiradi.

Tarixiy janrdagi asarlar ustida ishslash rassomdan katta sabot-matonatni talab etadi. Bu ishda faqat ijodiy umumlashtirish, tarixiy materiallarni yaxshilab o'rganish, shu zamon odamlarini va voqealarini jonli hayotda kuzatish orqali, tasvirlanuvchilarning mohiyatini va ahamiyatini o'zidek xarakterli va sharoitni borligicha tasvirlay bilish kerak bo'ladi.

Tarixiy va adabiy materiallarni o'qib-o'rganish va voqealarni haqqoniy yetkaza olish tarixiy asarlar ustida ishslashda katta rol o'ynaydi. Bu hammasi hali yetarli emas. Eng keraklisi, tarixiy janr asarlari ustida ishlaydigan rassom tomonidan ifodalananuvchi voqeа zamondoshlar uchun asosiy narsa hisoblanadi. Faqat shu yo'l bilan yetuk tarixiy asar yaratish mumkin. Shuning uchun qobiliyatni tarbiyalash — kompozitsiyani o'qtishdagi asosiy masalalardan biridir. Rassom mehnatida kompozitsiya ustida ishslashning o'zi asosiy ijodiy davr hisoblanadi. Tasviriy san'atda har qanday asarlar-ning kompozitsiyasi chizgilar, g'oyaviy mazmun bilan aniqlanmaydi, balki g'oya u bilan birga tug'iladi.

Obrazli tasavvurning bo'lmasligi mavzuning rassomdan ancha yiroqda ekanligini ko'rsatadi. Mavzuda aniqlangan har qanday holatlar, obrazlar jamlanganda hech qanday natija sezilmasa, mavzuning kompozitsion yechimi badiiy jihatdan yaxshi topilgan deb bo'lmaydi.

Kompozitsiya ustida ishslash — asosiy g'oyaga uzoq mantiqiy ishlov berish, aniqlik, uni boyitish va amalga tatbiq qila bilish jarayoni sifatida o'tishi kerak. Yosh rassom o'z kompozitsiyasida ro'y berayotgan voqeanning tashqi tomonlaridan uzoqlashishga yo'l qo'ymaslik kerak. Bunday yondashish asarning usulida yaratilishiga olib keladi. Asar a'lo darajada bajarilgan bo'lsa ham, lekin uning yechimi ta'sirli bo'lmaydi. Kompozitsiya har doim tasvirlanayotgan voqeanning borlig'idan, asosiy g'oyaviy mazmundan kelib chiqishi kerak, aksincha, san'atda qandaydir bir-biriga o'xshash narsalardan uni qidirish shart emas. Faqat shundagina rassomning o'y-

fikri takrorlanmas shaklda yangi kompozitsion yechimda o‘z aksini topa olishi mumkin.

Albatta obraz ustida ishlashning asosida rassomning hayotiy tajribalari, jonli taassurotlari va kuzatuvlari yotishi kerak. Faqat bu bilan cheklanib qolmay, obraz ustida ishlashda, ko‘proq unga yondashish yo‘lidan borish kerak. Faqat obraz xarakteristikasi uchun zarur va ajralib turadigan shaxslarni saralay bilish yo‘li bilan ularni kengaytirib va chuqurlashtirib ko‘rsatib, mantiqan o‘ylab chuqurroq ijodiy yondashilsa, asarning asosiy g‘oyasini yetkazuvchi haqiqiy tiniq obraz yaratilishi mumkin. Asardagi asosiy va 2-darajali qahramonlar rassom tomonidan aniq ifodalangan bo‘lishi va o‘z chizgilari, o‘z shaxsiy tafsilotlariga ega bo‘lishlari kerak. Shundagina ular asarning g‘oyaviy mazmunini ochishga ko‘maklashadi.

Asarning bosh qahramoni tomonidan darhol qabul qilinishi uchun uning xarakteristikasi albatta juda ham sezilarli va bo‘laklari, qismlari maromiga yetkazib ishlangan bo‘lishi kerak. Uning obrazi o‘ta tiniqligi bilan yorqin, ravshan, ta’sirchan bo‘lishi kerak.

Shundagina u asar o‘z o‘rniga ega bo‘lishi mumkin va tomoshabin ongiga ta’sir eta oladi.

Kompozitsiyaga olib kiruvchi, tashqaridan qaraganda seziladigan detallar juda katta e’tiborni talab etadi. Bu yerda eng zaruri, keraklisini tanlay bilish kerak, chunki har bir detal insonlar xarakteristikasini to‘ldirishi, asarning mazmunini ochishga yordamlashishi, har qanday sharoitda ham tasodifiy tafsilotni o‘ziga olmasligi zarur.

O‘ylamasdan olingan, tasodifiy tanlangan detallar shu zahoti asarning asosiy mazmunini qorong‘ilashtirib, yo‘q qilib yuboradi. Agar u jiddiy, mantiqan saralash asosida olib borilsa, unday holatda qahramonlar psixologik tafsilotini kuchaytiradi va tasvirlanayotgan voqeaneing ahamiyatini oolib boradi.

Asar hajmi va o‘lchamlarini aniqlash ham asosiy masalalardan biridir va o‘ylangan kompozitsiya tafsilotiga mos ravishda asarning asosiy g‘oyasiga bog‘liq bo‘lishi shart.

Ba’zan haddan tashqari katta yoki juda kichik o‘lchamlar ham mavzuning mazmuniga mos kelmasa, muvaffaqiyatli topilgan kompozitsyaning ta’sirini tushirib yuboradi.

Asosan katta «gigant» asarlarga qarshi kurashish lozim. Bunday asarlarga intilish ko‘p seziladi. Bunday asarlar kompozitsion yechimning xarakteristikasini ham, mazmunining ahamiyatini ham oqlay olmaydi.

Yosh rassom shuni tushunishi kerakki, kartinaning o‘lchami uning badiiy qiymati va ta’sir kuchini belgilamaydi, grafikada shuning uchun ham katta polotnolarga intilish shart emas.

Masshtabni his qila bilish, tushunish proporsiya, o‘lcham asarning asosiy mazmuniga mos kelmog‘i lozimligini yosh rassomning birinchi qadamlaridan oq o‘qitib o‘rgatish lozim. Asarda fikrlash g‘oyasi yuqori

badiiy saviyada, rassom tomonidan ishonarli topilgan bo'lsa, uni ochishda katta kuch bilan aynan ifodalashning shu vositalaridan foydalanilgan bo'lsa haqiqiy san'at asari bo'lishi va tomoshabinga o'z ta'siri kuchini o'tkaza olishi mumkin.

Ko'pgina hollarda kompozitsiya qurilmasida uchrab turadigan etishmovchilik (hatto tajribali rassomlarda ham) kompozitsyaning ikki yoki bir necha qismrlarga bo'linib ketishidadir. Shunday hollarda asarning yoki eskizning bir qismini yopib turib ko'rish mumkin. Shunda yopilmagan bo'lagi o'z holicha «yashayotganligini» namoyon qiladi. Uning yopiq qismida kompozitsyaning davomi borligini ko'rsatib turadi. Shuning uchun ba'zan kompozitsiyani teng bo'laklarga bo'lish yaramaydi: gorizontal — ko'ndalang ham emas, unday holatda ko'z oldimizda ko'ndalang bo'lib sochilib yotadi. Bir talay figuralarni va predmetlarni ham vertikal holatda joylashtirmaslik kerak. U ham shunday uzunasiga sochilib ko'rindi. Bu yerda shuni aytib o'tish kerakki, kompozitsiya «solishtirma, ommaviy» tarzda qayd etiladi. Siluetga ega son-sanoqsiz detallar kiradi. Agar kompozitsiya ko'p figurali bo'lsa, asosiy massa solishtirmasi topilgandan so'ng ularga ishlov beriladi. Bu qoidaga yana qo'shimcha sifatida har bir figurani, har bir predmetni shunday joylashtirish kerakki, ular tomoshabin tomonidan yengil va oson qabul qilinishi kerak. Hattoki ular boshqa figuralar va predmetlar bilan berkilib qolgan holatda bo'lsa ham.

Ayni shunday qisman uchrab turadigan yetishmovchilik shu bilan yakunlanadiki, kompozitsiyaga tegishli bo'lgan figuralar va predmetlar o'zining ko'rinishlari (siluetlari) bilan shunday qiyofada mos kelib qoladiki, bunda ular bir-biriga xizmat qilib, to'ldirib turganday tuyuladi. Bunda adashish vujudga keladi: qaysidir noaniq figuraga taalluqli qo'l-oyoq va boshqa shunga o'xhash narsalarning qaysi biriga tegishli ekanligini ajratib bo'lmay qoladi. Asosan, asosiy voqeа va harakatlar ikkinchi planda joylashadi, bunday paytda birinchi plan esa unga ergashgan holda xizmat qiladi. Agar tan olinsa, kompozitsiya bu badiiy asarning barcha elementlarining solishtirmasidir. Ya'ni, katta kuch va o'zining to'laqonligi bilan rassomning g'oyaviy o'y-fikrlarini ko'rsata oladigan narsadir. Va rassomning bu xulosasi g'oya, kompozitsiyada asosiylik kelib chiqishidir. Bu ishning hamma bosqichlarini aniqlaydigan «davr» hisoblanadi. Uni tas-virlash kerak — «mavzu» va «mazmun» tanlashdan boshlab va «mavzuni» tugatishda rassom aynan berilgan voqeada kashf etishi kerak bo'lgan texnik qo'llanmalar bilan tugallanadi. Shuning uchun yetuk san'at asarlari har doim tengsiz va bebahodir. Uning qimmati shundadir.

Har bir realistik mazmundagi asarda rassom nima haqida so'zlamoqchi ekanligini osongina tushunamiz. Lekin nima demoqchi ekanligi har doim ham aniq emas. Shuning uchun kompozitsiya ustida ishlashda birinchi o'rinda turuvchi va eng kerakli shartlar — rassomning fikrlash qobiliyati, hayotga ongli qarashi, haqiqatni chuqurroq tushunishi. U, shuningdek, o'z nuqtayi

nazariga, aniq belgilangan dunyoqarashiga ega bo'lishi kerak. Kompozitsiya ustida ishlashda ijodning o'z qonuniyati bor va u yashaydi va shakllanib boraveradi. Bu rassomning ijodiy faoliyati uchun, uning iste'dodiga, qobiliyatiga ta'siri yo'q. Albatta iste'dodni hech qanday qonun va qoidalar bilan almashtirib bo'lmaydi. Lekin har qanday iste'dod faqat o'ylantiradigan emas, balki tugal, yetuk asar yaratilishini talab etadi. Shu maqsadda kompozitsiyaga bo'lgan qobiliyatni to'g'ri tarbiyalashda va rivojlantirishda shunday nazariya yotadi va u bu ishda uning ahamiyati cheksizdir.

Kompozitsion qoida va usullarni ajrata bilish: kompozitsiyani ko'rishdagi bezatish ma'nosida unga ko'maklashadigan kompozitsion ijodiyotning qonuniyatlarini, badiiy asar mazmunidagi g'oyani mujassam-lashtiradigan jarayonni aniqlashni bilish lozim.

Kompozitsiyaga tegishli uchta asosiy narsa:

- hayotiylik;
- ta'sirchanlik;
- yaxlitlik.

Bu holatlar kompozitsion jarayonning asosiy bosqichlaridir. Amalda bu qonunlar mayjud emas, ammo bir-biridan ajralib ham ketmaydi, bir-biri bilan uzviy bog'langan va kompozitsiya ustida ishslash davrida doimo ta'siri bor. Bulardan biri hayotiylik qonuniyati — sujet qurish ishida katta ahamiyatga ega. Ta'sirchanlik qonuniyati — qarama-qarshiliklardan foydalanish, asosan, ikkinchi bosqichga tegishli — kompozitsiyada plastik asoslarning yaratilishi. Yaxlitlik yoki umumiylig qonuniyati esa to'g'ridan-to'g'ri tugallanish muammolari bilan bog'liqdir. Asosan ko'proq asarning tugallanish jarayoniga tegishlidir.

## MAVZUGA DOIR TOPSHIRIQLAR

Dastgohli grafikada turkum asarlar ishslash:

- A-3 formatga 2 yoki 3 varaq.
- Ashyo erkin tanlanadi.
- Kompozitsiyaga to'plangan ashylolar.

## NAZORAT SAVOLLARI

- Dastgohli grafikada mavzu tanlashda nimalarga e'tibor berish kerak?
- Badiiy asar ahamiyati faqat mavzuga bog'liqmi?
- Badiiy haqiqatni ochishda faqat naturadan foydalanish kifoya qiladimi?
- Obrazli tasavvurning kompozitsiya ishlashdagi ahamiyati.
- Asardagi obrazli harakatlarni rassom qayerdan oladi?
- Asar qahramoning obrazini tomoshabinga yetkazishda nimalarga e'tibor berish kerak?
- Asarda ishtirok etadigan detalning ahamiyati qanday?
- Asarda format o'lchamining ahamiyati.
- Kompozitsiya bu badiiy asarning barcha elementlarini taqqoslashmi?
- Asardagi mavzuni to'liq ochish rassomning fantaziyasiga bog'liqmi?
- Kompozitsiyaga tegishli bo'lgan eng asosiy narsa nima?

## XII BOB. DIPLOM UCHUN MAVZU TANLASH

### 1-\$. KITOBOT DIPLOMI UCHUN MAVZU

O'quvchining xohishi asosida bo'lajak diplom mavzusini erkin tanlash huquqi beriladi.

Oltinchi semestrdan boshlab o'quvchi bo'lajak diplomi uchun mavzu tanlaydi. Kitoblar qanday o'quvchilar ommasiga mo'ljallanganligi, maqsadi va mavzusiga qarab turlarga ajraladi. O'quvchilariga ko'ra kitoblar ommaviy, mutaxassislar uchun va bolalar kitobi bo'lishi mumkin.

VI semestrda o'quvchi kitobning namuna va turkum bezaklarini ishlaydi, diplom uchun xomaki ishlari bajaradi, shu bezaklardan biri tugallangan bo'lishi shart. Diplomga mavzuni o'quvchilar o'zlari erkin tanlaydi. Lekin mavzu grafika kafedrasida tasdiqlanadi.

O'quvchi kompozitsiyadan turkum ishlarni grafik ashyolarda bajaradi.

Birinchi yarim yillikdan boshlab diplom mavzusining xomakisini ishlaydi. O'quvchidan asar mohiyatini, bir-biriga bog'liqligini hisobga olish, asardagi uzviylik, mavzu tasvirining haqqoniyligi, ishonarliligi, asar g'oyasining o'sib borishi kabilarni e'tiborda tutish talab qilinadi.

VI semestr yakunida grafika kafedrasi kollej ilmiy kengashi bilan ko'rgazmaga qo'yilgan xomakilarga asoslanib, o'quvchining diplom mavzusini ishlashiga ruxsat etadi va diplom turkum ishlaringning xomakisini tasdiqlaydi.

Diplom xomakisi asosida erkin mavzuda turkum kompozitsiya ishlanadi (kitobning mакети, muqova, forzas, titul va 4 tadan kam bo'limgan illustratsiya ishlanadi).

Diplomning xomaki matni va mакети ustida ishlashda eng avvalo badiiy adabiyotdagi asarning g'oyasini asoslashga e'tibor qaratiladi. Mavzuga doir adabiyotlar tahlil qilinadi.

### MAVZUGA DOIR TOPSHIRIQLAR

1. Kitobning mакети.
2. Kitobning muqova, forzas, titul xomakisi.
3. Kitobga ashyolar to'plash.

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Diplom mavzusini o'qituvchi taklif qiladimi yoki o'quvchi mustaqil ravishda tanlaydimi?
2. Diplom mavzusiga qanday talablar qo'yiladi?
3. Diplom mavzusini kim tasdiqlaydi?
4. Diplom mavzusi qanday bo'lishi kerak?

## 2-§. PLAKAT DIPLOMI UCHUN MAVZU

O'quvchining diplom mavzusi uchun oltinchi semestrda, o'quv rejasidagi bo'yicha yetti hafta — yetmish soat ajratilgan. O'quvchining xohishi asosida bo'lajak diplom mavzusini erkin tanlash huquqi beriladi.

Bu mavzular: zamonaviy, tarixiy, maishiy, baynalmilal, milliy, madaniyat va sport, san'at, xalq xo'jaligi, qishloq xo'jaligi, texnik xavfsizlik, tabiatni muhofaza qilish, tibbiyotga oid, teatr, kino, konsert, sirk, turli bayram tomoshalariga reklamalar va boshqa mavzular yoki o'ziga juda yaqin bo'lgan, tanish mavzular bo'lishi mumkin.

3-kurs o'quvchisi mustaqil ravishda mavzu tanlashi mumkin. Bundan tashqari ular tomonidan bajarilishi kerak bo'lgan plakatlar juda tezlik bilan ishlanishi lozim. O'quvchi bir kun ichida yoki bir necha soatda ishlab ulgurishga o'rganishi kerak. Bunday plakatchidan kelajakda yetuk rassom shakllanadi, hayotda bo'layotgan jo'shqin o'zgarishlarga o'z vaqtida e'tibor berib qarashga o'rgatadi. Ikkinci semestrdan boshlab, o'quvchi diplom himoyasi uchun sinov tariqasida plakat ishlaydi, mavzu tanlashda o'quvchi o'ziga yoqqan, xohlagan ishini olishi mumkin va uni grafika kafedrasi tasdiqlab berishi shart.

Ikkinci semestr yakunida grafika kafedrasi va kollej ilmiy kengashi, ko'rgazmali sinov tariqasida ishlangan ishlarga asoslanib, o'quvchining diplom loyihasini ishlash uchun tavsiya etilgan ashyolarni, xomakilarning sifatini ko'rib chiqib, diplom ishlash uchun ruxsat etish masalasini hal qiladi.

Butun diplom oldi ijodiy amaliy o'quv mashg'ulotlari davomida o'quvchilar tasdiqlangan mavzu uchun har xil ashyolar to'playdilar.

### MAVZUGA DOIR TOPSHIRIQLAR

1. Diplom mavzusi siyosiy va mafkuraviy talablarga javob berishi.
2. Diplom mavzusi dolzarb va zamon talabida bo'lishi.
3. Diplom mavzusi turkum yoki yakka tartibda bo'lishi mumkin.
4. Diplom mavzusi sodda va ommabopligi.

### NAZORAT SAVOLLARI

1. O'quvchi diplom uchun mavzuni erkin tanlaydi, lekin u kim tomonidan tasdiqdan o'tadi?
2. Diplomga mavzu tanlashda o'quvchi nimalarga e'tibor berishi lozim?
3. Mavzu ustida ishlashda o'quvchining asosiy qiladigan ishi nimadan iborat?
4. Plakat mavzusini ishlashda husnixatning ahamiyati qanday?
5. Diplom mavzusi qanday bo'lishi kerak?

### **3-§. DASTGOHLI GRAFIKA DIPLOMI UCHUN MAVZU**

Oltinchi semestrdan boshlab o'quvchi bo'lajak diplomi uchun mavzu tanlaydi, o'quvchiga mavzuni erkin tanlash imkoniyati beriladi. Bular zamonaviy, tarixiy, maishiy, baynalminal, milliy, madaniyat va san'at, sport, xalq xo'jaligi, qishloq xo'jaligi va boshqa mavzular bo'lishi yoki o'quvchi o'ziga juda yaqin bo'Igan badiiy adabiyot asariga turkum dastgohli grafika kompozitsiyalar xomakilarini ishlashi mumkin.

Ikkinci yarim yillikda o'quvchi kompozitsiyadan turkum dastgohli grafika asarlari bajaradi. O'quvchidan turkum dastgohli grafik kompozitsiyani butunligicha yechish talab etiladi, ularda asar mohiyatining bir-biriga bog'liqligini hisobga olish va undagi bosqichma-bosqichlik, mavzudagi ko'rinishning haqqoniyligi, uni ishonarliligi, asardagi g'oyaning rivojlanishi, asosiy ekanligini ko'rsatishdan iborat.

Ikkinci yarim yillikdan boshlab diplomning mavzusining xomakisi turli grafik ashyolarda ishlab ko'rildi.

Grafika kafedrasi ikkinchi semestr yakunida kollej ilmiy kengashi bilan birgalikda o'quvchi tomonidan ko'rikka qo'yilgan xomakilarga asoslanib, o'quvchini diplom ishlashga ruxsat etadi va diplomdagagi turkum ishlarning xomakisini oldindan ashyolarini hisobga olib tasdiqlab beradi.

### **MAVZUGA DOIR TOPSHIRIQLAR**

1. Diplom mavzusi siyosi va mafkuraviy talablarga javob berishi.
2. Diplom mavzusi dolzarb va zamon talabida bo'lishi.
3. Diplom ishi turkum yoki yakka tartibda bo'lishi mumkin.
4. Diplom mavzusi realistik maktab an'analariiga asoslangan bo'lishi kerak.

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Diplom uchun mavzuni o'qituvchi taklif qiladimi yoki o'quvchi mustaqil tanlaydimi?
2. Diplom mavzusi qanday bo'lishi kerak?
3. Mavzuni ishlashda nimalarga e'tibor berish kerak?
4. Mavzuga qanday talablar qo'yiladi?

### **XIII BOB. DIPLOM OLDI AMALIYOTI**

#### **1-§. AMALIY MASHG'ULOTLARNING MAQSADI VA VAZIFALARI**

Diplom oldi amaliy mashg'ulotlar 3-kursning o'quv rejasiga ko'ra 6-semestr tugaganidan so'ng 6 hafta mobaynida o'tkaziladi.

O'quvchi diplom oldi ijodiy amaliy mashg'ulotini o'tkazish uchun mustaqil ravishda o'z mavzusiga mos joyni tanlaydi va unga kerakli ashyolar

to‘playdi. Diplom mavzusini ishlashda zarur bo‘ladigan turli ashyolarni yig‘ish grafika kafedrasida oldindan tasdiqlangan ish rejasiga asoslanib amalga oshiriladi. Diplom oldi amaliy mashg‘ulotining asosiy maqsadi naturadan foydalanishni o‘rganishdan iboratdir.

Amaliy mashg‘ulotlar davrida bajariladigan ishlar ijodiy ishning bir shakli bo‘lib, bo‘lajak grafik rassomning ijodiy tafakkurining har tomonlama o‘sishiga yordam beradi.

O‘quvchi diplom oldi amaliyoti davrida arxiv hujjatlarini o‘rganib chiqadi, unga asoslanib o‘z diplom ishiga mos taalluqli ma’lumotlarni yozib oladi. Fotosuratlar to‘playdi va mavzuga tegishli bo‘lgan daliliy ashyolar yig‘adi.

Diplom ishining mavzusi kollej pedagogik jamoasi muhokamasidan o‘tkaziladi, shundan so‘ng muzeylar, arxivlar va kutubxonalardan diplom ishiga zarur bo‘lgan ma’lumotlar to‘planadi.

Diplom ishi talaba naturadan o‘ziga yoqqan ashyolarni jamlaydi:

a) xomaki nusxalar: inson portreti va uning qomati, turli me’moriy ko‘rinishlar, inson portretini qo‘li bilan ishlash, har xil daraxtlar, uy-ro‘zg‘or buyumlari, qurol-aslahalar, jonsiz predmetlar, tabiat va atrof-muhit, hayvonot va hasharot dunyosi, kiyim-kechak, antikvar buyumlar va boshqa ashyolar;

b) etud: tabiat ko‘rinishi, jonsiz buyumlar, me’moriy qurilishlar, alohida bir guruh odamlar qomati, portretlarni qo‘li bilan ishlash: liboslar, bosh va oyoq kiyimlar, turli mehnat qurollari, jang uchun ishlatiladigan qurollar, me’moriy binolarning ichki va tashqi ko‘rinishi, hozirgi va qadim zamonda uy-ro‘zg‘orda foydalaniladigan maishiy buyumlar va boshqalar.

Diplom uchun ishlanadigan eng yaxshi uslubni topish uchun oldingi mumtoz ustalarining eng sara asarlaridan nusxa olib ishlanadi, bundan maqsad kelgusida bu usulni o‘zlarining diplom ishlarida qo‘llashdir.

For eskiz ishlanadi.

Yozma hisobot tayyorlanadi.

Amaliy mashg‘ulot haqida hisobot beriladi. Diplom oldi ijodiy amaliyot davrida o‘quvchi qat’iy reja asosida bajargan barcha ishlaridan ko‘rgazma tashkil qilib, kollej pedagogik jamoasi oldida hisobot beradi.

O‘quvchi diplom oldi ijodiy amaliyoti davomida turli joylarda ishlab chiqqan etud, chizgilar, xomakilar, chizmatasvir, rangtasvir, fotosuratlar, arxiv hujjatlari va boshqalardan diplom ishidagi kompozitsiya mavzusining to‘liq, ishonarli chiqishida foydalanadi.

## MAVZUGA DOIR TOPSHIRIQLAR

1. Diplom mavzusiga mos joyni tanlash.
2. Arxiv hujjatlarini o‘rganish.
3. Diplom uchun kerakli ashyolar to‘plash.
4. For eskiz ishlash.
5. Yozma hisobot tayyorlash.

1. O'quvchi diplom oldi amaliyotida ishni nimadan boshlashi kerak?
2. Diplom oldi amaliyotida o'quvchining oldindan tasdiqlangan mavzusi nimalarga ega bo'lishi kerak?
3. Diplom uchun to'planadigan ashyolar qaysi manbalar asosida to'planadi?
4. O'quvchiga diplomga ashyolar toplashda qanday ko'rsatmalar beriladi?

## **2-§. PLAKAT ISHLASHDA DIPLOM OLDI AMALIYOTINING AHAMIYATI**

O'quvchilarning bu galgi diplom oldi ijodiy amaliyot mashg'ulotlari oldingilaridan tubdan farq qiladi. Grafika kafedrasi va kollej ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlangan mavzular bo'yicha har bir o'quvchi o'zining diplom ishi uchun kerakli bo'lgan: shahar, qishloq, viloyatlar, chet ellarni tanlab oladi va kollej yo'llanmasi bo'ylab diplom ishiga material, ashyo yiqqani jo'nab ketadi. O'quvchi diplom ishining mavzu bo'yicha borgan yerlaridan rangtasvir, chizmatasvir, grafik usulda ishlar, ora chizgilar, kerak bo'lsa yozma tarixiy ma'lumotlar, fotosuratlarni jamlab, olib kelishi shart. Shu yig'ilgan materiallar diplom ishslashda foydalanishga arziydigan bo'lishi shart.

Kollej ilmiy kengashi va grafika kafedra o'qituvchilari birlashmasi o'quvchilarning diplom oldi ijodiy amaliy mashg'ulot davomida, diplom kompozitsiya asari uchun yiqqan materiallarini, qo'shimcha ashyolarini ko'rib chiqib tasdiqlashi kerak. O'quvchilarning diplom uchun to'plagan materiallari tasdiqdan muvafaqqiyatli o'tgandan so'ng, plakat kompozitsiya asarini ishslashga kirishishlari mumkin.

Diplom ishlari bir necha turkum plakatlardan iborat bo'lishi mumkin, lekin 4 tadan kam bo'imasligi kerak.

## **MAVZUGA DOIR TOPSHIRIQLAR**

1. Diplom mavzusi bo'yicha ashyolar toplash.
2. Mavzuga mos arxiv hujjalari yig'ish.
3. Mumtoz rassomlar asarlaridan nusxa ko'chirish.
4. For eskizlar ishslash.
5. Yozma hisobotlar yozish.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Diplom oldi amaliyotida o'quvchi nima asosida ish boshlaydi?
2. Diplom uchun kerakli bo'lgan ashyolarni qayerdan izlaydi?
3. Diplom amaliyoti uchun har bir o'quvchiga qancha soat ajratilgan?
4. Diplom amaliyoti davrida o'quvchi nimalarga e'tibor berishi lozim?

### 3-§. DASTGOHLI GRAFIKADA DIPLOM OLDI AMALIYOTI

Diplom oldi amaliy mashg'ulotlar 3-kursning o'quv rejasi asosiga ko'ra VI semestr tugagandan so'ng olti hafta mobaynida o'tadi.

O'quvchi diplom oldi ijodiy amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun mustaqil ravishda o'z mavzusiga mos joylarini tanlaydi va unga kerakli ashyolar to'playdi. Diplom mavzusini ishlashda zarur bo'ladigan turli ashyolarni yig'ish grafika kafedrasida oldindan tasdiqlangan ish rejasiga asoslanib amalga oshiriladi. Diplom oldi amaliyoti mashg'ulotning asosiy maqsadi, naturadan diplom asari uchun daliliy ashyolarni to'plash va ulardan foydalanishni o'rghanishdan iboratdir. Amaliy mashg'ulotlar davrida bajariladigan ishlar ijodiy ishning bir shakli bo'lib, bo'lajak grafik rassom ijodiy tafakkurining har tomonlama o'sishiga yordam bo'ladi. O'quvchi diplom oldi amaliyot davrida arxiv hujjatlарни o'rghanib chiqadi, unga asoslanib, o'z diplom ishiga mos ma'lumotlarni yozib oladi, fotosuratlar to'playdi va mavzuga tegishli bo'lgan barcha daliliy ashyolar to'playdi.

O'quvchining diplom ishi mavzusi kollej pedagogik jamoasi muhokamasidan o'tkaziladi, shundan so'ng, muzeylar, arxivlar va kutubxonalardan diplom ishiga zarur bo'lgan ma'lumotlar to'planadi.

Diplom ishi uchun o'quvchi naturadan o'ziga yoqqan ashyolarni jamlaydi:

a) xomaki nusxalar: inson portreti va uning qomati, turli me'moriy ko'rinishlar, inson portretini qo'li bilan ishslash, har xil daraxtlar, uy-ro'zg'or buyumlari, jang qurol-aslahalari, jonsiz predmetlar, tabiat va atrof-muhit, hayvonot va hasharot dunyosi, kiyim-kechak, antikvar buyumlar va boshqa ashyolar;

b) etud: tabiat ko'rinishi, jonsiz buyumlar, me'moriy obidalar, alohida bir guruh odamlar qomati, portretlarni qo'li bilan ishslash, liboslar, bosh va oyoq kiyimlar, turli mehnat qurollari, jang uchun ishlatiladigan qurollar, me'moriy binolarning ichki va tashqi ko'rinishi, hozirgi va qadim zamonda uy-ro'zg'orda foydalanilgan maishiy buyumlar va boshqalar.

Diplom uchun ishlanadigan eng yaxshi uslubni topish uchun oldingi mumtoz ustalarining eng sara asarlaridan nusxa olib ishlanadi, maqsad kelgusida bu usulni o'zlarining diplom ishlarida qo'llashdan iboratdir.

For eskiz ishlanadi.

Yozma hisobot tayyorlanadi.

O'quvchi diplom oldi ijodiy amaliyoti davomida turli joylarda ishlab chiqqan etud, chizgilar, xomakilar, chizmatasvir, rangtasvir, fotosuratlar, arxiv hujjatlari va boshqalardan diplom ishi kompozitsiya mavzusining to'liq ishonarli chiqishida foydalanadi.

Diplom oldi ijodiy amaliyot davrida o'quvchi qat'iy reja asosida bajargan barcha ishlaridan ko'rgazma tashkil qilib, kollej pedagogik jamoasi oldida hisobot beradi.

## **MAVZUGA DOIR TOPSHIRIQLAR**

1. Diplom mavzusiga mos joyni tanlash.
2. Arxiv hujjatlarini o'rganish.
3. Diplom uchun ashyolar to'plash.
4. For eskiz ishlash.
5. Yozma hisobot tayyorlash.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. O'quvchi diplom oldi amaliyotida qanday reja asosida ishlaydi?
2. Rejaga asosan o'quvchi qayerda va nimalar to'playdi?
3. O'quvchiga diplom oldi amaliyotida rahbar kerakmi?
4. O'quvchi ashyolar ishlash uchun nimalar qilishi lozim?

## **XIV BOB. KITOBOT UCHUN DIPLOM ISHI**

### **1-§. KITOBOT DIPLOM ISHI**

Diplom ishlashdan avval kitobning namunasini va xomakisini ishlash usuli haqida suhbat va mutaxassislik maslahati beriladi.

Kollej ilmiy kengashi va grafika kafedrasi oldindan diplom ishini ko'rib chiqishi tavsiya etadi va diplomga tanlangan kitobning namunasi, xomakilarini va bu ishga taalluqli bo'lgan hamma ashyolarni tasdiqdan o'tkazadi. Shundan so'ng o'quvchi diplom ishini bajarishga kirishadi.

Diplom ishi quyidagilardan iborat bo'lishi shart: maketning barcha nashrdagi bezaklari asl nuxsada ishlanadi. Bu ishlar uch-to'rttadan kam bo'lmasligi kerak;

diplom ishi grafik ashyolarning birida bajariladi;  
diplom himoyasi uchun yozma ravishda keng ma'noli qilib tushuntirish ishi yoziladi.

Kitob kompozitsiyasidan diplom ishi oldindan tuziladigan ish rejasi asosida butun o'quv yili davomida ishlanadi. O'quvchi diplom ishi uchun xomakilar, qora chizgilar va chizmatasvirlarni grafik ashyolarga mo'ljallay bilishi, birinchi chizmatasvirlardan tortib to barcha mutaxassislikka zarur bo'ladigan ashyolarning o'ziga xosligini har tomonlama tahlil qila bilib, ularni bir joyga jamlab, diplom ishlarida qo'llay bilishi lozim.

Diplom ishi bir badiiy asar sifatida tugallanishi kerak. Diplom imtihon hay'at a'zolari muhokamasiga tavsiya etilishi zarur bo'lgan narsalar: tugallangan grafik san'at asari va unga taalluqli bo'lgan qo'shimcha ashyolarni havola etadi.

## **MAVZUGA DOIR TOPSHIRIQLAR**

1. Kitobning namunaviy mакетини ishlash.
2. Kitobga tegishli bo'lgan muqova, forzas, titul, illustratsiya ishlash.

3. Kitobning ichiga ishlangan asarlar kamida uchtadan ashyoda ishlab himoyaga qo'yiladi.
4. Diplom ishiga ishlangan xomakilarni to'plash va himoyaga tayyorlash.
5. Yozma ravishda tushuntirish ishi yozish.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Diplom o'quvchining kollejdagi so'nggi ishi bo'lib, uning umumiy hajmi qanday bo'lishi lozim?
2. O'quvchiga diplom uchun ashyoda ishlashda qanday erkinliklar beriladi?
3. Diplomga ishlanadigan kitobning super muqovasi, muqova, forzas, titul, illustratsiyalar, shmustitul, postanovkalarni ishlashda nimalarga e'tibor berish lozim?
4. Qanday bajarilgan diplom ishi tugallangan hisoblanadi?
5. Diplom yozma ishidan maqsad nima?

## 2-§. PLAKAT UCHUN DIPLOM ISHI

Diplom plakat asarlari butun o'quv yili davomida, reja asosida diplom rahbari va grafika kafedrasi nazorati ostida bo'lishi shart.

Diplom ishi uchun o'quvchi, o'zining to'plagan tajribalarini ishga solishi, plakatidagi qahramonlarining obrazini, timsolini ochishi, tasvirning plakat bilan uzviy bog'langanligi, plakatdagi adabiy jumlaning husnixat bilan bog'liqligi, o'zining professional kasb mahoratini, plakat ishlashda, grafik ashyolarda ishlash texnologiyasini mukammal egallaganligini ko'rsatishi kerak.

Diplom uchun ishlangan plakatlarning asl nusxasi nashriyot va bosmaxona texnologiyasi va talablariga to'liq javob berishi shart. Diplom ishi o'quvchi uchun o'quv jarayonining eng so'nggisidir. Diplom ishi san'at asari darajasiga yetgan bo'lishi lozim. Diplomat davlat imtihoniga diplom plakatlarining asl nusxasini va diplomga tegishli bo'lgan qo'shimcha ashyolarni taqdim etishi lozim.

O'quv rejada diplom ishini bajarish uchun 360 (uch yuz oltmis) soat ajratilgan. Diplomat grafika kafedrasi tasdiqlagan reja asosida navbatma-navbat o'z diplom ishlarini bajarishga kirishadi.

Diplom himoyasi uchun yozma ravishda keng ma'noli qilib tushuntirish ishi yoziladi. Bularning hammasi diplomat rahbari nazorati ostida amalga oshiriladi.

## MAVZUGA DOIR TOPSHIRIQLAR

1. Diplom ishi turkum yoki yakka tartibda san'at asari bo'lishi mumkin.
2. Diplom ishi to'rttadan kam bo'imasligi kerak.
3. Diplomga to'plangan xomakilarni tayyorlash.
4. Diplom uchun tushuntirish ishi yoziladi.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Diplom ishining varag'i eng kamida qancha bo'lishi kerak?
2. Plakatda g'oya birlamchimi yoki shakl?
3. Plakatda rang chegaralanadimi?
4. Plakatning tugallangan holati qanday bo'lishi kerak?

### **3-§ DASTGOHLI GRAFIKA UCHUN DIPLOM ISHI**

Kollej ilmiy kengashi o'quvchilarning diplom ishini grafika kafedrasи ko'rsatmasи asosida ko'rib chiqadi va diplom ishining xomakilari va uning uchun to'plangan ashyolarga asoslanib, oldindan uni tasdiqdan o'tkazadi. Undan so'ng o'quvchi diplom ishini bajarishga kirishadi.

Diplom ishi turkumi grafik ashyolardan tashkil topgan bo'lishi lozim, o'quvchi ashyoni o'zi tanlaydi (3—4 varaqdan kam bo'lmasligi kerak).

Grafika va kollej ilmiy kengashi qaroriga asosan, ayrim hollarda diplom ishi erkin grafik ashyolarida bajarilishi mumkin.

Reja bo'yicha butun o'quv yili mobaynida diplom ishi topshiriqlari olib boriladi, o'qituvchi yordamida o'quvchi tomonidan ishlab chiqilgan va grafika kafedrasи tasdiqlagan dastur asosida ishlanadi.

Diplom ishi badiiy san'at asari sifatida tugallangan bo'lishi kerak.

Diplomat diplom asarining asl nusxasini himoya uchununga to'plangan tayyorlov hujjatlari va boshqa ashyolar bilan birgalikda baholashga Davlat imtihoni hay'atining a'zolari muhokamasiga havola qiladi.

### **MAVZUGA DOIR TOPSHIRIQLAR**

1. Diplom ishi dastgohli grafikada uchlik yoki yakka tartibda bo'lishi ham mumkin.
2. Diplom ishi to'rttadan kam bo'lmasligi kerak.
3. Diplom uchun to'plangan ashyolarni himoyaga tayyorlash.
4. Diplom uchun tushuntirish yozma ishi.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Diplom ishi o'quvchining kollejdagi so'nggi ishi, uning hajmi qancha bo'lishi kerak?
2. Dastgohli grafikada badiiy asar qahramoni obrazi qanday hal qilinadi?
3. Dastgohli grafikada ashyoning roli qanday?
4. Diplom mavzusini to'la ochishda nimalarga e'tibor berish kerak?
5. Diplom ishi qanday holatda tugallangan hisoblanadi?
6. Diplom uchun yoziladigan yozma ishning asl mohiyati nimadan iborat?

## GRAFIK ASHYOLAR VA ULARNING QISQACHA MAZMUNI

### Qalam

Qalamlar turli qattiqlikda bo‘ladi, № H dan № 4H gacha yoki T dan 4T gacha uchraydi. Yumshoqlari esa B dan 4B gacha yoki M dan 4M gacha bo‘ladi. O‘rta qattiqlikdagisi esa HB yoki TM holda bo‘ladi.

Yumshoq qalam tarkibida yog‘ moddasi bo‘lgani uchun ko‘p chizib, o‘chiraverganda qog‘ozni yog‘lab qo‘yadi, qog‘ozning sirtini ishlash uchun yaroqsiz holga keltiradi, ayniqsa suv bo‘yog‘i bilan ishlash qiyin bo‘ladi, ketma-ket ranglar qo‘yilganda ishlangan ish tezda kir bo‘lib, yaroqsiz holga kelib qoladi.

### Suv bo‘yoq (akvarel)

Akvarel (lotincha «*aqua*» — suv) — rassomlik san’atida ishlatiladigan bo‘yoq (suvda oson eriydi) va shu bo‘yoq bilan bajarilgan rangtasvir janri.

Akvarelning o‘ziga xos xususiyati tiniqligi va rangining sifatliligidadir. Akvarel bilan ishlashda oq bo‘yoq ishlatilmaydi, oq qog‘oz bo‘yoq vazifasini bajaradi.

Akvarel bo‘yog‘i qog‘oz sirtiga yupqa qatlam bo‘lib yotadi, bu qatlam nurni yaxshi o‘tkazadi. Shuning uchun akvarel yuzasi silliq bo‘limgan oq qog‘ozga ishlanadi. Akvarel bo‘yog‘ida rasm ishlaganda rang surtmalari, rang qatlamlari xususiyati hisobga olinishi kerak.

### Tempera

Tempera (italyancha «*tempera*» — bo‘yoqni aralashtirmoq):

1) bo‘yoq va bog‘lovchi moddasi suvli emulsiya va tuxum sarig‘idan tarkib topgan bo‘yoq. Bog‘lovchi moddalar tarkibiga qarab sariq tempera (tuxum sarig‘i qo‘shilgan), oq tempera (tuxum oqi qo‘shilgan), kazeinli tempera va boshqa turlari bor. Sanoat usulida katta va kichik tyubiklarda ishlab chiqariladi.

2) tempera bo‘yoqlari yordamida yaratilgan rangtasvir turi: mahobatli va dastgohli san’atda keng qo‘llanadi. Temperada yaratilayotgan asarlar sirli lok bilan qoplanmaydi. Shuning uchun ular mayin jilosiz sirtga ega. Tempera asarlarida rang va rang tuslari tashqi ta’sirga chidamli, o‘zining dastlabki sifatini moy bo‘yoq rassomligiga nisbatan uzoq vaqt saqlaydi. Temperani akvarel va guash bilan qo‘shib ishlatish mumkin.

Guash (italyancha «guazzo» — suv bo‘yoq) — kukun bilan suv va yelim bog‘lovchilari (aqoqiyo, bug‘doy kraxmali, dektrin va boshqalar) va oq bo‘yoq (belila) aralashmasidan iborat bo‘yoq, shuningdek, shu bo‘yoq bilan ishlangan tasviriy san‘at rassomlik asari. Qog‘oz, karton, faner, mato, suyakka naqsh ishlashda qo‘llanadi. Akvarel turi sifatida paydo bo‘lgan guashdan o‘rta asrlardayoq Osiyo va Yevropaning ko‘p mamlakatlarida, asosan kitob miniatyurasida foydalanilgan. XIX asr o‘rtalarida guash bo‘yog‘i sanoatda ishlab chiqarila boshlagach, mustaqil usulga aylandi. Guash akvareldan oq bo‘yoq qo‘shilganligi, bo‘yoq qatlaming qalinligi bilan farq qiladi.

O‘zbekistonda 1920-yillarda, ayniqsa 2-jahon urushi yillaridan («O‘zTAG oynasi», «Jangovor qalam») plakatlar va boshqalarda keng rivojlandi. Hozir guash plakat, amaliy grafika va kitob grafikasi, teatr dekoratsiyasi eskizlari, bezak ishlari, miniatyura, mahobatli rangtasvir, naqqoshlik va boshqalarda keng qo‘llanadi.

41. Коворит — rangtasvirda rang turini iflas etish uchun yordam beradigan material. O‘sning qurʼati qo‘llanadi.
42. Краска — rangtasvirda rang turini iflas etish uchun yordam beradigan material. O‘sning qurʼati qo‘llanadi.
43. Краситель — rangtasvirda rang turini iflas etish uchun yordam beradigan material. O‘sning qurʼati qo‘llanadi.
44. Матрица — rangtasvirda rang turini iflas etish uchun yordam beradigan material. O‘sning qurʼati qo‘llanadi.
45. Масштаб — rangtasvirda rang turini iflas etish uchun yordam beradigan material. O‘sning qurʼati qo‘llanadi.
46. Маскировка — rangtasvirda rang turini iflas etish uchun yordam beradigan material. O‘sning qurʼati qo‘llanadi.
47. Маннитина — rangtasvirda rang turini iflas etish uchun yordam beradigan material. O‘sning qurʼati qo‘llanadi.
48. Марка — rangtasvirda rang turini iflas etish uchun yordam beradigan material. O‘sning qurʼati qo‘llanadi.
49. Накоп — rangtasvirda rang turini iflas etish uchun yordam beradigan material. O‘sning qurʼati qo‘llanadi.
50. Натюрморт — rangtasvirda rang turini iflas etish uchun yordam beradigan material. O‘sning qurʼati qo‘llanadi.
51. Паттерн — rangtasvirda rang turini iflas etish uchun yordam beradigan material. O‘sning qurʼati qo‘llanadi.
52. Орнамент — rangtasvirda rang turini iflas etish uchun yordam beradigan material. O‘sning qurʼati qo‘llanadi.
53. Рисунок — rangtasvirda rang turini iflas etish uchun yordam beradigan material. O‘sning qurʼati qo‘llanadi.
54. Текстура — rangtasvirda rang turini iflas etish uchun yordam beradigan material. O‘sning qurʼati qo‘llanadi.
55. Переплет — rangtasvirda rang turini iflas etish uchun yordam beradigan material. O‘sning qurʼati qo‘llanadi.
56. Печать — rangtasvirda rang turini iflas etish uchun yordam beradigan material. O‘sning qurʼati qo‘llanadi.
57. Плакат — rangtasvirda rang turini iflas etish uchun yordam beradigan material. O‘sning qurʼati qo‘llanadi.
58. Пластика — rangtasvirda rang turini iflas etish uchun yordam beradigan material. O‘sning qurʼati qo‘llanadi.
59. Плюсна — rangtasvirda rang turini iflas etish uchun yordam beradigan material. O‘sning qurʼati qo‘llanadi.
60. Покраска — rangtasvirda rang turini iflas etish uchun yordam beradigan material. O‘sning qurʼati qo‘llanadi.
61. Покраска краинская — rangtasvirda rang turini iflas etish uchun yordam beradigan material. O‘sning qurʼati qo‘llanadi.

## GRAFIKA SAN'ATIDA QO'LLANADIGAN SO'ZLARNING LUG'ATI

1. Абриса — tashqi ko‘rinish, xomaki plan
2. Асфальту — bitum va mineral moddalar aralashmasidan iborat tibbiy va sun‘iy massa, qorishma
3. Акватинта — maxsus ruh taxtachadagi chizma shakllarni soya farqlarga ajratib ishlash
4. Автографский — toshbosma uchun maxsus qog‘oz turi (kornpapir)
5. Афиша — tomosha haqida e‘lon
6. Автолитография — mualliflik toshbosma
7. Блик — yaltiroq, natura sirtida yoriqlik nuri eng ko‘p aks etgan joy
8. Выкрявает Qoplama
9. Высокая печать Yuqori bosma
10. Выскребания Qirtishlash
11. Гарнитура — harflarning tafovuti, narsaning yig‘indisi
12. Гладилка Tekislagich
13. Глубокая печать Chuqur bosma
14. Гравюра Qatlamlash
15. Грунтовка
16. Гамма — muayyan qonuniyatga bo‘ysungan ranglar sirasi
17. Гармония Uyg‘unlik
18. Гризал
19. Декоратив
20. Доска Taxta
21. Диапазон
22. Детал
23. Жест и мимика
24. Жанр
25. Заставка концовки — kitobning so‘ngidagi bezak lavhasi

26. Зернение — ofortning metsatinta uslubida mexanik qo'l bilan ishlash
27. Иллюстрация — tasvir, kitobga ishlangan rasm
28. Индивидуальный — o'ziga xos, yakka tartibda
29. Инструктивный — tushuntirish
30. Интервал — oraliq
31. Кегель — harflar o'lchami
32. Классик — mumtoz
33. Комплекс — umumlashgan, majmuyi
34. Композиция — badiiy asar ko'rinishi
35. Контраст — qarama-qarshi, keskin farq
36. Корректор — musahhih
37. Корешок — kitob tubida tikilgan joy
38. Клише цинковый — ruhli klishe (ko'p nusxada bosma olish uchun silindr yuziga metall qoplash)
39. Карикатура — italyancha so'zdan olingan bo'lib, tasvirni kattalashtirish, bo'rttirish
40. Картина — badiiy ahamiyatga ega bo'lgan san'at asari
41. Колорит — rangtasvirda rang tuslari majmuasi
42. Макет — kitob namunasi, asl nusxasi
43. Материал — xomashyo
44. Матрица — bosmada ko'paytiriladigan shakl (shyol-kografiya usulida)
45. Масштаб — hajm, ko'lam
46. Метод — uslub
47. Манатипия — bir marta olinadigan bosma nusxa
48. Мягкий лак — yumshoq lak (ofort texnikasida qalam usulida ishqorlanib ishlash usuli)
49. Набор — yig'ma
50. Натура — moddiyat, asliga qarab chizish
51. Натюрморт — jonsiz buyumlar tasviri
52. Образ — asar ruhiyatini ochish, siymo, timsol
53. Офсет — rasmni formadan rezinkaga ko'chirib, undan qog'ozga bosish usuli
54. Панно — devorga osilgan surat, rasm
55. Переплет — kitob muqovasi
56. Печать — bosma
57. Пластик образ — ko'rinish, qiyofa, siymo, aft, bashara
58. Пластинка — bosma uchun ishlatiladigan metall taxtacha
59. Плоская печать — bosma elementlarni bir xil tekislikda joylashuvi
60. Подкладка — qoshimcha bosma olish taxtachasi
61. Подрамник — mato uchun yog'och rama

62. Полоса — chiziq  
 63. Портрет — chehra, qiyofa, rasm  
 64. Примечание — ilova  
 65. Перспектива — qisqarish  
 66. Палитра — bo‘yoqlarni aralashtirish uchun yasalgan maxsus taglik  
 67. Разворот — kitob yoymasi  
 68. Ракурс — tasvirni yonidan, tepa yoki pastdan ko‘ri-nishi  
 69. Реалистик — haqqoniy vogelik  
 70. Редактор — muharrir  
 71. Репродукционная — bosma nusxasi  
 72. Рецепт — yo‘l, qolip, andoza, usul  
 73. Рисующая доска — asosiy bosma oladigan taxtacha  
 74. Рангтасвир — tasviriy san‘at turi  
 75. Сатирик — hajviy  
 76. Символик — ramziy  
 77. Спусковая полоса — tushirish yo‘li  
 78. Стандарт — tasdiqlangan hajmda, shaklda  
 79. Сухая игла — igna bilan taxtachaga rasm ishlash, ishqorlash  
 80. Сюжет — mohiyat, ma‘no  
 81. Силуэт — soya tasviri  
 82. Текст — matn  
 83. Тема — mavzu  
 84. Технология — texnik uslub  
 85. Травленный штрих — taxtachani lak bilan qoplab, igna bilan o‘yish va uni kislotada ishqorlash  
 86. Трафарет — o‘yma andoza, qolip  
 87. Титул — kitobning birinchi varag‘i, beti  
 88. Тоновая — ranglarni ochdan to‘qqa qarab borishi  
 89. Торцевой — kislografiyada ton bilan ishlash burchagi  
 90. Фигура — qomat  
 91. Форзац — kitob varaqlarini muqova bilan biriktirib turadigan qog‘oz yoki latta  
 92. Форма — shakl  
 93. Формат — hajm  
 94. Фронтиспис — titul betidagi yoniga joylashtirilgan rasm va kitobning asosiy mazmunini tasviri  
 95. Характер — fe‘l, axloq, xulq  
 96. Шабером — ofortda ishlatiladigan asbob  
 97. Шрифт — bosma harf, husnixat  
 98. Штрих — turli holatdagi chiziqlar

- |                    |  |
|--------------------|--|
| 99. Шёлк           | — ipak mato  |
| 100. Элемент       | — belgi, buyumning tarkibiy qismi                      |
| 101. Эстамп        | — bosma usulda ko'paytirilgan san'at asari             |
| 102. Эмоционал     | — jo'shqin   |
| 103. Эскиз         | — asarning xomaki nusxasi                              |
| 104. Этюд          | — mashq (bo'lajak asarga ishlangan xomaki surat)       |
| 105. Этюдник       | — rasm ishslash uchun mo'ljallangan moslamà            |
| 106. Черная манера | — qora texnika (ofortning metsatinta usulida ishslash) |

62. Повседневный — chiq qo'shi — жыл  
 63. Порядок чибина әзизшылығында, мән тизмәс 00  
 64. Районный чибина әзизшылығында — шытәс 101  
 65. Перспектива чибина — qisimpäsi'i — аланышыс 301  
 66. Панорама изахап ылымда әзизшылығында — дөрөс 401  
 67. Разворот

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. PLAKAT POLSKI, Warszawa, 1968.
2. За экономию и бережливость. — М.: Плакат, 1985.
3. Всесоюзная юбилейная художественная выставка, графика.
4. А. Эгамбердиев. Жанровая живопись Узбекистана. Т.: Г. Гулом, 1989.
5. Искусство оформления книги. Ленинград, 1966.
6. Е. В. Шорохов. Композиция. — М., 1986.
7. Е. В. Шорохов, Н. Г. Козлов. Композиция. — М., 1978.
8. В. П. Бродский. Художник и город. — М.: Искусство, 1965.
9. К. Г. Зайцева. Современная архитектурная графика. — М.: Литература по строительству, 1970.
10. Р. Р. Кликс. Витрина и интерьер современного магазина. — М.: Экономика, 1971.
11. М. Дериберс. Цвет в деятельности человека. 1964.
12. А. Зайцев. Наука о цвете и живопись. 1986.
13. Л. М. Холмянский, А. С. Шипанов. Дизайн.
14. Р. Р. Кликся. Художественное проектирование экспозиций. 1978.
15. Ю. С. Сомов. Композиция в технике. 1972.

68. Графист	— о ула ашота, сурп
69. Титул	— kitobning birinchi vurgi, beli
70. Тоновая	— tanglarni ochish u 0'qqa qaratib berish
71. Торисков	— aktoqaynida tor bilan ishlash burchasi
72. Фигура	— forma
73. Форма	— kateb karaplarini maqoya bakan birlikte kortasiga yod'oz yoki itta
74. Формат	— shakli
75. Фон	— hajm
76. Фонетикис	— tilif belidagi yoniga joyleshunieap tazisi kitobeining asosiy matnninin tazovasi
77. Характер	— fe'l, xaoq, xulq
78. Шаблон	— oforda ishlashdigen shabob
79. Шрифт	— besme hoz, fuksiyat
80. Шрина	— tush boladagi chiziqlar

## MUNDARIJA

Kirish .....	3
I bob. Kompozitsiyaning umumiy kursi .....	5
1-§. Kompozitsiya umumiy kursining maqsadi, vazifasi va mohiyati .....	5
2-§. Kompozitsiya haqida umumiy tushuncha .....	7
3-§. Kompozitsiyada ranglar jilosi va uning rassom uchun ahamiyati ...	7
II bob. Tasviriy san'atda rangtasvir kompozitsiyasi .....	10
1-§. Tasviriy san'atda kompozitsiya .....	10
2-§. Kompozitsiyada qo'llanadigan asosiy tushunchalar va ularning mohiyati .....	11
III bob Natyurmort asosida kompozitsiya .....	15
1-§. Natyurmortlardan rasmlar ishlash .....	15
2-§. Geometrik shakklardan natyurmort ishlash .....	16
3-§. Dekorativ natyurmortdan kompozitsiya tuzish .....	17
IV bob. Manzara va manzilni aks ettiruvchi kompozitsiya .....	17
1-§. Shahar mavzusida kompozitsiya yaratish .....	17
2-§. Shahar mavzusiga dastgohli grafika ishlash.....	19
V bob. Kitob bezagi san'ati .....	19
1-§. Kitob .....	19
2-§. Kitoblarning tuzilishi va turlari .....	21
3-§. Kitobni bezash .....	22
4-§. Asar mavzusidan kelib chiqqan holda xomakilar ishlash .....	24
VI bob. Xalq og'zaki ijodi namunalarida kompozitsiya .....	25
1-§. Ertak .....	25
2-§. Xalq ertaklari .....	26
VII bob. Targ'ibot va tashviqot ishlariga doir kompozitsiya .....	27
1-§. Plakat haqida tushuncha .....	27
2-§. Amaliy grafika .....	29
3-§. Reklama .....	29
4-§. Piktografiya .....	31
VIII bob. Yozgi amaliyot asosida aks ettiruvchi kompozitsiya .....	32
1-§. Yozgi amaliyot asosida o'simlik yoki hayvonot dunyosidan grafik stilizatsiya kompozitsiyasi .....	32
IX bob. Kitobni bezash va uni tasvirlash .....	34
1-§. Kitobni bezash va uni tasvirlash haqida umumiy tushuncha .....	34
2-§. Zamonaviy o'zbek adiblari badiiy asarlarini bezash .....	35
3-§. Kitob bezashda asar mohiyatini belgilovchi uslub .....	36
X bob. Plakatning ijtimoiy hayotdagi o'rni .....	37
1-§. Plakat kompozitsiyasi .....	37
2-§. Plakat kompozitsiyasini ishlash uslubi .....	39

XI bob. Dastgohli grafika kompozitsiyasi .....	40
1-§. Dastgohli grafika kompozitsiyasi haqida umumiy tushuncha .....	40
2-§. Dastgohli grafika kompozitsiyasi va uning bosqichlari .....	41
XII bob. Diplom uchun mavzu tanlash .....	47
1-§. Kitobot diplomi uchun mavzu .....	47
2-§. Plakat diplomi uchun mavzu .....	48
3-§. Dastgohli grafika diplomi uchun mavzu .....	49
XIII bob. Diplom oldi amaliyoti .....	49
1-§. Amaliy mashg'ulotlarning maqsadi va vazifalari .....	49
2-§. Plakat ishlashda diplom oldi amliyotining ahamiyati .....	51
XIV bob. Kitobot uchun diplom ishi .....	53
1-§. Kitobot diplom ishi .....	53
2-§. Plakat uchun diplom ishi .....	54
3-§ Dastgohli grafika uchun diplom ishi .....	55
1-ilova. Grafik ashyolar va ularning qisqacha mazmuni .....	56
Grafika san'atida qo'llanadigan so'zlarning lug'ati .....	58
Foydalilanigan adabiyotlar .....	62

**N. XUSANOV**

## **KOMPOZITSIYA**

### **(DASTGOHLIK GRAFIKA)**

*Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma*

«SHARQ» nashriyot-matbaa aksiyadorlik  
kompaniyasi Bosh tahririysi.

100083, Toshkent shahri, Buyuk Turon, 41.

Muharrir     *A. Sa'dullayev*

Badiiy muharrir     *J. Gurova*

Texnik muharrir     *A. Salixov*


Musahhih     *M. Qosimova*

Kompyuterda sahifalovchi     *E. Kim*

Bosishga 19.10.07 da ruxsat etildi. Bichimi  $60 \times 90\text{'}_{16}$ . «Tayms» garniturada ofset bosma usulida bosildi. Sharqli b. t. 7,0. Nashr t. 7,5. Jami 650 nusxa.  
281-raqamli buyurtma.

«ARNAPRINT» MChJ bosmaxonasida bosildi.

100182, Toshkent, H. Boyqaro ko'chasi, 41.



ISBN 978-9943-00-23



9 789943 00233